Haf	haffan	hæfde	Hæf-d	ega bo'lmoq
Lif	liffan	lifde	Lif-d	yashamoq
Sag	secgan	sægde	Sæg-d	o'tirmoq

O'zakdagi undoshlar ikki marta orttirildi [i] esa tushib qoldi. O'tgan zamon shakllarida "i" yo'qolgan edi.

Preterit-prezent fe'llari

Qadimgi ingliz tilida kuchli, kuchsiz fe'llardan tashqari preterit-prezent (Past present) deb nomlanuvchi fe'llar ham mavjud bo'lgan. Ushbu fe'llarning asosiy xususiyati shunda ediki, ular oldingi bo'lib o'tgan harakatning natijasini anglatib hozirgi zamonda deb tushuniladi. Pretrito-prezent shakllarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Sinf	Infinitiv	Hozirgi zamon		O'tgan zamon	Sifatdosh II	Ma'no
I	witan	wat	witan	wisse	witen	bilmoq
	agan	ag	agan	wiste ahte	agen	bor bo'lmoq
II	dugan	deag	dugon	-	-	yaramoq
III	unnan	ann	unnon	uthe	unnen	sovg'a qilmoq
	cunnan	cann	cunnon	cuthe	cuth	bilmoq
	thurfan	thearf	thurfon	thorfte	-	muhtoj bo'lmoq
	durran	dearr	durron	dorste	-	jur'at etmoq
IV	sculan	sceal	sculon	sceol	-	burchli
	munan	man	munon	demunde	munen	eslamoq
V	magan	meag	magon	meahte	-	qila olmoq
	-	geneah	genugon	genohte	-	ushlamoq
VI	-	mot	moton	moste	-	qila olmoq

Suppletiv fe'llar

Qadimgi ingliz tilida, shuningdek grammatik shakl o'zakdagi turli

o'zgarishlar orqali yasaladigan suppletiv fe'llar ham mavjud bo'lgan. Ushbu fe'llar guruhiga **beon-to be, gan-to go, don-to do, willon - to want** va boshqalari kirgan.

Boen fe'lining tuslanishiga e'tiborimizni qaratamiz.

Aniqlik mayli

	Hozirgi zamon	O'tgan zamon
Birlik	I –sh eom, beo II –sh eart, bist III –sh is, bith	wæs wære wæs
Ko'plik	I –sh sint II –sh sindon III –sh beoth	wæron wæron wæron


Istak mayli

	Hozirgi zamon	O'tgan zamon
Birlik (I,II,II)	Sie, beo	Wære
Ko'plik (I,II,III)	Sien, beon	wæren

Fe'l t uslari va zamonlari

Qadimgi ingliz davrida faqat ikkita zamon bor edi, hozirgi va o'tgan zamon. O'tgan zamon formalarining xususiyati shundaki, ular faqat harakat vaqtini belgilamasdan, balki fe'lning turini ham ko'rsatadi.

Qadimgi ingliz tilidagi fe'l t uslari



Qadimgi ingliz tilida fe'llarning zamon va nisbatlarda tuslanishi quyidagicha bo'lgan:

	Kuchli fe'llar	Kuchsiz fe'llar
--	-----------------------	------------------------

Infinitiv	Findan (N.E find)	beran (N.E bear)	Deman (N.E deem)	locian (N.E. look)
Hozirgi zamon	Aniqlik mayli			
Birlik	Finde Fintst Fint (deth)	bere bir (e)st bireth	Deme Demst Demath	locie locast locath
Ko'plik	Findath	berath	Demath	locath
Istak mayli				
Birlik	Finde	bere	Deme	locie
Ko'plik	Finden	beren	Demen	locien
Buyruq mayli				
Birlik	Find	ber	Dem	loca
Ko'plik	Findath	berath	Demath	lociath
O'tgan zamon	Aniqlik mayli			
Birlik	Fond Funde Fond	bær bære bær	Demde Demest Demde	locode locodest locode
Ko'plik	Fundon	bæron	Demdon	locodon
Istak mayli				
Birlik	Funde	bære	Demde	locode
Ko'plik	Funden	bæren	Demden	locoden
Sifatdosh 1	Findende	berende	Demende	lociende
Sifatdosh 2	(ge) fundon	(ge) boren	(ge) demed	(ge) locod

Ushbu sxemada ko'rsatilganidek fe'l kesim gapda ega bilan shaxs va sonda moslashgan:

He bindeth –he bends

Bringath me hider tha –Bring me those loaves

Qadimgi ingliz tilida present tense ham kelasi zamonni ifodalash uchun qo'llanilgan.

Thonne thu tha in bringst he ytt and bletsath the – when you bring them, he will eat and bless you.

The past tense o'tgan zamonda bo'lib o'tgan turli voqealarni ifodalash uchun qo'llanilgan.

Old thæs ofer Eastron gefor Ælthered cyning: ond he ricsode fif year – and then after

Easter died king Althered and he had reigned five years.

Qadimgi ingliz tilida tus ma'nosini aks ettirish uchun bir necha usullar bor edi. Birinchi usul – bu fe'lning aspekt xarakteri edi.

1) chegaralangan xarakterli fe'llar o'tgan zamon formasini, harakat tugallanganligini aks ettiradi.

2) chegaralanmagan xarakterli fe'llar o'tgan zamon xarakterini tugallanmagan jarayonni aks ettirar edi:

Beon –to be

Billan –to live

Slæpan –to sleep

III. Ikkilama aspekt xarakterli fe'llarga **write seon** kabilarni kiritish mumkin. Bu fe'llar harakatni ham eks ettiradi. Bu fe'larning aspekt ma'nosi matnning sintaksis sharoitiga bog'liq edi. Agar otda to'ldiruvchi yoki ravish va ikkinchi darajalari gap bo'laklari tursa, paytda 1 usul grammatik ya'ni fe'lning tus xarakteri bo'lgan.

Bundan tashqari qadimgi ingliz tilida fe'lning turlanishini ifodalash uchun grammatik usul ham bor edi. Tugallangan aspektni qadimgi ingliz tilida qo'shimchalar aks ettirishi mumkin edi. Ammo hamma qo'shimchalar ham bu vazifani bajara olmas edi. Shuning uchun ham qo'shimchalar 2 guruhga bo'lingan.

be, on, purh , for, fore, to va boshq. Yuqoridagi qo'shimchalar o'zining leksik ma'nosini saqlab qolgan va ularning asosiy funksiyasi so'z yasash edi.

Ammo shu prefikslar fe'lning ma'nosini ham o'zgartirishi mumkin edi. Ba'zi paytlarda esa fe'lning ma'nosi butunlay o'zgaradi:

Seon (ko'rmoq) **forseon** (nafrat)

Ba'zi qo'shimchalar fe'lning ma'nosini aniqlar edi:

Brecan (sindirmoq) **purbrecan** (urib sindirmoq)

Bu qo'shimchalar ba'zi paytlarda so'zning ma'nosini o'zgartirish bilan ayni bir vaqtda fe'lning aspekt ma'nosini ham o'zgartiradi, ya'ni shu fe'lga tugallangan aspekt ma'nosini beradi.

“ge” va “a” prefikslar shakl va so'z yasaydi.

Grammatik vositalar leksik grammatik vositaga bog'liq edi. Birinchi guruhning qo'shimchalari faqat chegaralanmagan xarakterli fe'llar bilan ishlatilar edi.

Ond þu geare namon Westseaxe frip wip þone here - O'sha yili uesseksliklar daniya qo'shinlari bilan tinchlik sulhi tuzishdi.

Chegaralangan harakat fe'llari bilan birinchi guruh fe'llari juda oz ishlatilgan va faqat biron-bir harakat boshlanishi yoki tugallanganligini ko'rsatar edi, ammo jarayon davom etardi.

He on eaþan engelice life gelifde - U angliya yerlarida yashar edi.

Chegaralangan harakat fe'llar bilan birinchi guruh qo'shimchalari oz ishlatiladi va tugallanganlik va takrorlanishni ko'rsatilar edi.

Hy bændon hergedon aslagon from sæ oþ sæ – Ular uzoq vaqt talonchilik qilishdi, o'ldirib yashashdi.

Shunday qilib, birinchi guruhning old qo'shimchalari tugallangan harakatlarni ko'rsatish uchun grammatik usul hisoblangan. Ammo qadimgi ingliz tilida aniq aspekt sistemasi ham yo'q edi. Grammatik shakllarning ishlatilishi mantiqsiz ya'ni aniq emas edi. Ba'zi paytlarda old qo'shimchali fellar tugallanmagan harakatni ham ifodalar edi.

Bryttas sume time gestelgon fram at gefeohte ond hie sylfe þrseston on ingefeohtum. Bir necha vaqt britlar urushlardan dam olgan edi va o'zlarining ichki urushlari natijasida bir-birlariga kirishib ketishgan edi.

Qadimgi davridayoq ingliz tilining fe'l-zamon shakllarida analitik shakllar vujudga kela boshlagan edi. **Sculan, willan, beon, wesan, habban** fe'llarining leksik ma'nolarini kuchsizlanishi natijasida analitik shakllar vujudga kela boshladi va bu shakllar biror-bir zamon shaklining grammatik shakli sifatida qo'llanila boshladi: Ic eom cumen - Men keldim

Fe'lning majhul shakli

Qadimgi ingliz tilida majhul fe'lli **wesan, bēōn, weorþan** va sifatdoshning o'tgan zamon orqali ifoda etiladi.

Þær uæs se gurfana genumen

Bayroq olingan edi.

“He wearth ofslægen” (u o’ldirilgan bo’ldi) u o’ldirildi (uni o’ldirishdi).

Mayl

Qadimgi ingliz tilida boshqa tillardagi kabi uchta mayl bor edi: aniq, buyruq va shart mayli. Aniqlik mayli ob'ektiv faktlarni ifoda etadi. Buyruk va shart mayllari esa sub'ektiv bo’lgan.

Masalan: far to þære heorde and bring me two tha betstan tyssena – Padoga bor va menga ikkita eng yaxshi ko’zalardan olib kel.

wes þu ūs larena god. Bizlarga maslahat ber.

Shart mayli qadimgi ingliz tilida keng tarqalgan edi. Bosh gapda shart mayli shartlilikni bildirishi uchun ishlatilgan.

Se the me thenige, fylige he me

"Kim menga xizmat qilishni istasa, meni orqamdan borsin", yoki real bo’lmagan shartni ifodalaydi.

Gif thu uære hēt, nære nun brother dēād. Agar sen bu yerda bo’lganingda, mening akam o’lmas edi.

Ergash gaplarda esa shart mayli bosh gaplarga qaraganda yanada ko’proq tarqalgan edi. Shart mayli ko’chirma gap, shart gaplarda ko’chirma savollarda, to’siq gaplarda ishlatilardi.

Masalan: Him uæs lēōfre, thæt hine man ofsloge þonne hine man gebende - Uni bog’lagandan ko’ra o’ldirganing ma’qulroq.

He meahte is æt hide mid. He sæde thæt Northmanna land wære swythe lang and smæl – Uning aytishicha skandinavlar mamlakati tor, ammo uzun.

Ahsige eft hū lange sio siff ζestodt - Tunchlik qancha vaqtga cho’zilganligini so’rachi.

Sintaksis

Qadimgi davr ingliz tilida so’z tartibi aniq tartibga ega bo’lmagan. Hete wæs onhrered, hod weard one niow mannes reorde - adovat uyg’ondi. Xazina qo’riqchisi o’sha kishining nutqini eshitdi.

Nu ic suna minum syllan wolde guthgewædu - Endi o’g’limga qurol-aslaha

bersam bo'ladi.

So'z tartibidagi umumiy o'zgarishlar

O'rta asrlarda qo'llanilgan ingliz tilida so'z tartibidagi o'zgarishlar tilning grammatik tizimidagi o'zgarishlarga mos ravishda rivojlana bordi. Bu davrga kelib so'z tartibining ahamiyati qadimgi davrdagi so'z tartibiga nisbatan ancha muhim ahamiyat kasb eta bordi. Qadimgi davrda morfologik qo'shimchalar orqali ifodalangan ko'pgina tushunchalar (otlarning kelishik qo'shimchalari, fe'lning zamon kategoriyasini ifodalashda qo'llaniladigan qo'shimchalar va hokazo) endi so'z tartibi yordamida ifodalana boshladi.

Masalan, tushum kelishigi (Dative) orqali ifodalangan tushunchalar fe'l-kesimning ketidan albatta to'g'ri (vositasiz) to'ldiruvchining joylashtirilishi orqali ifodalaninshi yo'lga qo'yila boshladi. Gapda eganing kesim oldida kelishi mustahkamlanib odat tusini ola boshladi va bu hol gapning grammatik belgisi sifatida shakllana boshladi. Qadimgi davrga xos bo'lgan "PQS" , ya'ni "kesim Q ega" tarzida qurilgan gaplarning yozma va og'zaki nutqda qo'llanilishi borgan sari sezilarli darajada kamaya bordi. Masalan, XVIII asr boshida yaratilgan "King Horn" poeziyasida ana shunday tarzda teskari tartibda tuzilgan gap tartibi umuman uchramaydi. Biroq gap boshida holning qo'llanishi hollari haliyam saqlanib qolaverdi. J. Choserning qalamiga mansub bo'lgan yozma yodgorliklar (asarlarda) bunday gaplar tez-tez ko'zga tashlanib turadi.

Masalan:

1. so priketh hem nature.

Tabiat ularni shunday yaratgan.

2. so hadde I spoke with hem everychon

Men ularning har biri bilan so'zlashishga shu tarzda ulgurdim.

3. well coude he sette on hors.

U ot ustida yaxshi o'tira olardi.

Ushbu gaplarning barchasida hol (ravish holi) gap boshida, ya'ni eganing oldida kelayapti. Aglyutinativ tillarda bo'lgani singari kesimning gap oxirida kelish hollari (bu hol sintetik hol deyiladi) qadimgi davrdagidan ko'ra kamroq

uchray boshladi. 16 asr boshlarida yaratilgan Richard Rollning (Richard Rolle de Hampole) asarlarida ana shunday sintetik tartibning qo'llanilishi 4 % hollarda uchraydi. Bosh gapda ana shu hollarning uchrashiga misollar keltiramiz:

1. and in his arms he hem alle up hente

U ularning barchasini o'z quchog'iga quchib oldi.

2. she hir love him graunted

U qiz o'zining sevgisini unga sovg'a qildi.

Bu hol ergash gap tarkibida ham uchrashi mumkin. Masalan:

1. and of this cry they holde never stenten, til they the reynes of his brydel henten - va ular bu hayqirig'ini to'xtatishni, uning otining tizginidan tutmagunlaricha istamadilar.

Qadimgi ingliz tiliga xos bo'lgan sintaktik xususiyatlardan biri aniqlovchi (sifat)ning aniqlanmish oldidan kelishidir. Ana shu holat o'rta asrlarda qo'llanilgan ingliz tilida ham saqlanib qoldi. Ayrim hollardagina, bu ham bo'lsa fransuz tilining ta'sirida bo'lgan bo'lsa kerak, aniqlovchi aniqlanmish otdan keyingi o'rinni egallaydi. Masalan:

1. heir male

merosxo'r ota tomonidan bo'lgan .

2. court martial

harbiy sud

3. knight ergapt

sarguzashttalab ritsar.

4. cousin german

amakivachcha

O'rta asrlarga kelib so'z tarkibidagi yordamchi qo'shimchalarning yo'qola borishi tufayli o'sha so'zning gap tarkibidan munosib joy olishining ahamiyati tobora orta bordi. Bu borada o'rta asrlar ingliz tili qadimgi va yangi davr (New English) ingliz tili o'zrtasida o'rtahol vaziyatni egallaydi. Chunki bu davrda so'zning gap tarkibidagi o'rni hali yangi davrdagidek qat'iy emas edi, lekin qadimgi davrdagidek erkin ham emas edi. Bu davr uchun xos bo'lgan so'z

tartibining xususiyatlarini Choserning "Kenterberi hikoyalari" asaridan olingan namunalar bilan izohlash mumkin:

Whan that Aprille with his schoures sote
The droughte of Marche hath perced to the rote
And bathed every veyne in swich licour,
Of which vertu engendred is the flour...

Aprel o'zining yoqimli yomg'irlari bilan martdagi qurg'oqchilikning tomir-tomirigacha to'ydirib sug'organda uning bu karomatidan gullar paydo bo'ladi.

Ushbu gapda gapning egasi rolida kelayotgan *Aprille* so'zi va *the droughte* hamda *every veyne* kabi vositasiz (to'g'ri) to'ldiruvchilar hech qanday qo'shimchalar yordamisiz o'zining gapda tutgan o'rni (o'timli fe'ldan keyingi o'rin) bilan o'zining sintaktik vazifasini bajarayapti. Lekin bu hol yuqorida zikr etilganidek, hali yangi davr ingliz tilidagidek mustahkam pozitsiyada emas. Chunki birinchi to'ldiruvchi the **droughte** kesim **hath perced** oldida turibdi. Ikkinchi to'ldiruvchi **every veyne** esa o'zi bog'liq bo'lgan **bathed** kesimdan keyingi o'rinni egallagan. Oxirgi qatordagi gapda esa ega (*flour*) kesim (*engendred*) dan keyingi pozitsiyani egallagan. Bu ergash gapdagi fe'l-kesim majhul nisbatda qo'llanilgani bois undan keyin kelayotgan ega rolidagi otni to'ldiruvchi deb qabul qilinishiga hech qanday asos yo'q.

Yangi davr ingliz tilida bunday so'z tartibi mutlaqo ko'zga tashlanmaydi. Umuman olganda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan sintetik va teskari so'z tartibi yuqorida zikr etilgan asosiy model hisoblangan (S+P+O) modelidan biroz chekinish kayfiyatini ham ko'rsatib turibdi. Shu bilan bir qatorda shu davrda gapning har bir bo'lagi uchun ajratilgan maxsus o'rin mustahkamlanib, so'z tartibining qat'iylashuv jarayoni tezlay boshlagani ham yaqqol ko'zga tashlanadi; kesim oldidagi o'rin ega uchun, kesimdan keyingi o'rin esa to'ldiruvchi uchun maxsus tayinlangan joy bo'lib qola boshladi. Ushbu normadan chekinish holatlari asosan, holni, ayrim o'rinlarda esa to'ldiruvchini gap boshiga o'tkazish bilan xarakterlanadi.

Gapda so'z tartibining asosiy sintakik vosita sifatidagi roli yangi davr tilida

ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Bu davrga kelib ikki tarkibli shaxsli gaplarning barcha kommunikativ turlari (ya'ni darak, so'roq, undov, buyruq mazmunidagi) turlarida so'z tartibining qat'iy bir tizimda mustahkamlanishi kuzatiladi. Bu davr uchun to'g'ri so'z tartibini darak gaplarda qo'llash oddiy an'anaga aylangan bo'lsa ham, ayrim o'rinlarda bu tamoyildan chekinish hollari kuzatiladi. Bunday hol asosan ikki holatda ro'y beradi:

a) gapning bosh bo'laklari tizimidagi inversiya (teskari so'z tartibi) holati;

b) so'z birikmalarida hokim so'z bilan tobe so'zning o'rin almashtirishi; Inversiya holati quyidagi o'rinlarda yuz berishi mumkin edi:

a) agar gap boshida o'rin yoki payt ravishi kelib ega o'rnini egallab olgan bo'lsa;

masalan:

Here comes she to me.

1. **Now** shalt thou be moved.

Bu gaplarda inversiya holati gapning egasi olmoshlardan ifodalanganligi tufayli qo'llanilmoqda. Bunday holatni quyidagi vaziyatlarda ham kuzatish mumkin.

b) that, this ko'rsatish olmoshlari orqali ifodalangan to'g'ri (vositasiz) to'ldiruvchilardan so'ng:

But who directed you thither?

That did my man, sir.

This did /fear.

v) bog'lovchi rolida qo'llanilgan ravishlardan so'ng:

Thus have I shanned the fire for fear of burning;

Yet but can I not but worthily admire;

And **then** would they straight back him, in opinion.

g) inkor ma'nosini ifodalovchi va cheklash ma'nosini bildiruvchi ravishlar va ulardan hosil bo'lgan birikmalardan so'ng:

Never came trouble to my house;

Never *had lady* more watchful officers.

Bunday xarakterdagi inversiya hodisasi hozirgi zamon tilida ham saqlanib qolgan. Masalan:

Never *have I seen* such a beautiful painting.

Bunday gaplarning yangi davr boshlarida qo'llanilgan inversiyadan farqi shuki, u davrda Present va Past Simple dagi fe'l shakllarida to'la inversiya holati o'rin oladi. Chunki "do" yordamchi fe'li XVII asr oxirlariga kelibgina inversiya qo'llaniladigan emfatik konstruktsiyalardan mustahkam o'rin oladigan bo'ldi. Masalan:

1. Not a syllable *did she utter*;
2. Only now *did she understand* what had happened to her mother.

Qadimgi ingliz tilidagi polipredikativ strukturalarning funktsional-semantik tahlili

Olamdagi barcha voqea-hodisalar bir-biri bilan u yoki bu tarzda bog'langan. Mantiqan, boshqa bir hodisa bilan aloqadorlikka ega bo'lmagan hodisaning o'zi yo'q. Polipredikativ strukturalar, ya'ni murakkab tarkibli qo'shma gaplar borliqdagi murakkab voqea-hodisalarini bildiradi. Mazkur paragrafda biz qadimgi ingliz tilidagi qo'shma gaplarning strukturasi va semantik xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Bu kabi izlanish hozirgacha hali hech kim tomonidan amalga oshirilmagan, bu haqida mavjud adabiyotni o'rganish dalolat bo'lib turibdi. Hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik turli jihatlarga ko'ra mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, bir hodisa boshqasi bilan kelib chiqishiga, sodir bo'lish paytiga, maqsadiga yoki boshqa jihatlarga ko'ra bog'liq bo'ladi. So'zlovchining nutqiy maqsadi hamisha ham bu bog'liqlikni bevosita ta'kidlashga qaratilavermaydi. Agar mazkur bog'liqlikni ta'kidlash zaruriyati tug'ilsa, avval qo'shma gapga murojaat qilinadi. Bu narsa til taraqqiyotining barcha zamonlarida sodir bo'lib kelgan narsa bo'lib, qadimgi ingliz tili ham bundan mustasno emas. Tasavvur qiling, ko'chada ikki kishi bir-biri bilan gaplashib turibdi. Bilamizki, hatto ular bir-biri bilan tanish ham emas. Shunda ham

ularning so'zlashuvi - aloqasi mutlak mantiqsiz asossiz emas, muayyan bir sabab, ayni munosabatning albatta qandaydir asosi bor.

Tabiiyki, voqea-hodisalar o'rtasidagi mantiqiy munosabatning tabiati ham turlicha bo'ladi. Bu munosabat sabab-oqibat shaklida bo'lsa, ayni munosabatdagi voqealarning o'zaro aloqasi juda zich bo'ladi, zero sababsiz oqibat va oqibatsiz sabab bo'lishi mumkin emas. Shakl va mazmun dialektikasiga ko'ra, bu albatta gapning mazmuniy-sintaktik sathida ham o'z ifodasini topadi. Agar voqea-hodisalar o'rtasidagi munosabat, aytaylik, o'xshatishga asoslangan bo'lsa, ayni munosabatdagi voqealarning o'zaro aloqasi u qadar mustaqil bo'lmaydi. Chunki o'xshatish real olamdagi xolis usul emas, balki so'zlovchining nutqiy ifoda maqsadi bilan aloqador bo'lgan sub'ektiv yondashuvidir. Bu ham, albatta, gapning mazmuniy-sintaktik sathida o'z ifodasiga ega bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, voqealar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar benihoya murakkab va xilma-xildir. Bunday murakkab munosabatlarning ifodasi uchun, ayniqsa ergash gaplar qulay, ammo qo'shma gaplarning boshqa turlarida ham voqealar o'rtasidagi munosabatlar ifodalanadi.

Mazkur qo'llanmada biz qadimgi ingliz tilidagi qo'shma gap turlarining strukturaviy semantik va funksional jihatdan o'rganishda quyidagi manbalardan foydalandik:

1. А.И.Смирницкий Хрестоматия по истории английского языка, Москва, 1953.

2. И.П.Иванова Книга для чтения по истории английского языка, Москва, 1999.

3. В.А.Алексеева Хрестоматия по истории английского языка, Москва, 1976.

4. Anglo-Saxon reader, Oxford, Oxford University Press, 1966.

Endi mana shu va boshqa manbalardan olingan misollarni atroflicha tahlil qilib chiqaylik:

1. Th r hie hit georne ongitan cuthen. When they could readily understand it. (Orosius , 214.5) Ular qiynalmasdan tushunib olganlarida...

2. Ic m g eac on urum agnum tidum gelic anginn th m gesecgan. I can also tell of a beginning similar to that in our own times. (Orosius, 100.19) Bizning davrimizda bo'lgani kabi boshlanishini aytib berishim mumkin.

3. For thon the hio hyre firen luste fulgan ne moste. Because she could not satisfy her desires. (Orosius,30.33) Chunki u qizning istak hohishlarini ro'yobga chiqara olmadi.

4. Ic sual eac niede thara monegena gewinna geswigian the on east londum gewurdon. I shall also by necessity be silent about those many battles that took place in the East. (Orosius, 218.20) Agar zarur bo'lsa men ham o'sha sharqda bo'lib o'tgan qirg'inbarotlar haqida lom-mim demasligim mumkin.

Bu gaplarning hammasi bir variativ sintaktik qatorni tashkil etadi, ular uchun umumiy mazmuniy-mantiqiy munosabat esa paytdan iborat. Bu vaqt munosabati esa ergash gapli qo'shma gaplarda aniq vaqt ta'kidlangan holda ifodalangan, keyin bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarda esa bu munosabat shaklan bevosita ifodalangan emas. Mazkur munosabat ayni gaplarda umumiy mazmun va mantiqqa ko'ra anglanadi. Lekin baribir ularda muayyan bir voqea yetakchi bo'ladi. Ana shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, bog'langan qo'shma gaplardagi gaplar o'zaro teng huquqlidir, degan fikrning nisbiyligi, yani bu teng huquqlilik mantiqiy-mazmuniy jihatdan emas, balki shakliy jihatdanligi ayon bo'ladi.

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan qismlar orasida ham payt, qiyoslash, sabab-natija, izohlash va ayirish mazmun munosabatlari ifodalanadi. Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan qismlar shaklan mustaqil, mazmunan o'zaro bog'langan gaplardan tashkil topadi. Lekin shaklda mazkur munosabatlar bevosita ifodaga ega bo'lmaydi:

1. The he ond tha consulas hie attellan ne mehton. (Orosius, 140.30) When he and the consuls could not count them. U va konsullar ularni sanab sanog'iga yeta olmay qolganda...

2. Ac him h efdon Rene thone weg forseten. (Orosius,172.18) Buth Carthaginians had blocked the way. Lekin Karfagenliklar yo'lni to'sib qo'yishdi...

3. Tha Scipio h efde gefaren. (Orosius, 196.22) When Scipio had gone. Skipio

ketganida...

4. Hu Orosius s ede th et he w ere cumen? (Orosius,4.17) How Orosium said that he had come? Uning kelganligini Oroziy qanday aytdi?

5. Thider hi tha mid fired gefaren w eron. (Orosius,236.19) To the place where they had marched with the army. Ularni qo'shinlar haydab olib borgan joyga...

6. Ond him efterfyldende w es. (Orosius,236.29) And was following him. ... va ular uning orqasidan kelayotgan edilar.

7. That seo ea bith flowende ofer eal Aegypta land.(Orosius, 12.35) So that this river floods on the land of Egypt. Shuning oqibatida bu daryo Misr yerlari ustiga toshgani-toshgan.

Bog'langan qo'shma gaplarning talqini munosabati bilan German Paul shunday deb yozgandi: «Shu narsa shubhasizki, gaplarni tenglashish munosabati yordamida qo'shish extiyojining o'zi, agar bu gaplar o'rtasida ichki aloqa bo'lmaganda edi, ya'ni ularning biri ikkinchisini muayyan ma'noda aniqlamaganda edi, hech qanday oqilona asosga ega bo'lmasdi». Olim o'z fikrini davom ettirib aytadi: «Biz shuni aniqladikki, hatto mustaqil gaplar ham bir-biri bilan aloqaga kirishib, tobelanishdan iborat ma'no nozikligiga e'tibor bo'ladi». Ayrim tilshunoslar ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'shma gap qismlarining tilshunoslar tomonidan juda ko'p ta'kidlanayotgan tengligi uydirmadir,- deydilar.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ham voqealar o'rtasidagi xilma-xil munosabat aks etsa-da, bu munosabat bevosita shakliy ifodaga ega bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, ularda ham voqealarning birining yetakchiligi, uning boshqasi bilan mantiqiy-mazmuniy munosabati anglanadi.

Masalan:

Thin Eagan weorthath gestonde thinne bebiodend. (Cura Pastoral is, 405.25) Your eyes shall see your master. Sening ko'zlaring ustozingni ko'radi...

Nu ic wille eac p es maron Alexandres gemunende beon. (Orosius, 110. 10) Now I shall also consider Alexander the Great. Endi men ham Iskandarning buyukligini tan olaman.

Is sceal feohtende beon. I shall be fighting. Men kurashayotgan bo'laman...

Pa tha Darius geseah th et he oferwunnen beon wolde.(Orosius, 128.5) When Darius saw that he would be conquered. ... mag'lub bo'lganligini Doro ko'rganda

Ne cw eth th t nan man ne bude be northan him. (Orosius, 19.10) He said that no man lived north of him. U bundan shimolroqda hech kim yashamasligini aytdi.

Nu ic nille eac th es magap Alexandres gemunende beon. Now I shall also not consider Alexander the Great. Endi men ham Iskandarni buyuk bo'lganligini tan olmayman.

Fand tha th er -inne ethelinge gethiht swefan efler symble , sorge ne cuthon , wonsceaft weru .(Beowulf, 126) He found in there a troop of warriors steeping after the feast, they did not know any trouble , misery of men. U yerda ziyofatdan so'ng qotib uxlayotgan qo'shinni ko'rdi, ular har qanday g'am-tashvishdan begona edilar.

W es he, se mon in weoroldhade geseted oth tha tide ,the he w es geleferede ylde, ond he n efre n enig leoth geleornade. (Beowulf,255) He, that man was a layman, untill he reached an elderly age, and he had never learnt any song. U, mo'ysafid yoshga yetgunga qadar dindan, cherkovdan yiroqda yurgan odam bo'lib, birorta ashulani ham yoddan bilmasdi.

Ic me mid Hruntinge domgewyrce, oth the tes death nimeth. (Beowulf, 255) I will acquire glory with Hrunting (a sword) or death shall take me. Men yoki Xrunting qilichi bilan muzaffar g'alabaga erishaman yoki bo'lmasa o'limga tik boqqancha qurbon bo'laman.

Tha Beormas h efdon swithe wel gebun hira land, ac hio ne dorston th eron cumin. (Beowulf, 126) The Permians had had their land very well cultivated, but the travellers did not dare to disembark there. Bermyanlar o'z yerlariga juda yaxshi ishlov berishgan, lekin sayoqatchilarning u yerda qolishga yuraklari chopmadi.

Shu o'rinda yana bir mulohazani aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Dunyodagi tilshunoslikning deyarli barchasida qo'shma gaplarning tasnifi bir xil, ya'ni:

1. Bog'langan qo'shma gap (Compound sentence)
2. Ergashgan qo'shma gap (Complex sentence)
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap (Asyndetical clauses)

Bu tasnifdagi nomlanishda asos yagona emasdek tuyuladi. Bir qarashda yagona asos borgan o'xshaydi, ya'ni tasnifda go'yoki grammatik shakldan kelib chiqilgan: «bog'langan» - deganda bog'lovchilar, «ergashgan» - deganda ergashtiruvchi bog'lovchilar va shunday boshqa vositalar, «bog'lovchisiz» - deganda esa bog'lovchi va bog'lovchi vositalar ishtirok etmagan qo'shma gaplar nazarda tutilganday. Ammo aslida «ergashgan» - deganda ham shakliy va mazmuniy jihat hisobga olinganligi aniqroq anglashiladi, ya'ni bir voqeaning boshqasiga tobe'ligi, ergashishi ta'kidlangan. Ayni paytda ergashish ham bog'lanish, ergashgan qo'shma gapdagiga qaraganda zichroq bog'langan. «Bog'lovchisiz qo'shma gap» - deganda, mazmunga mutlaqo ishora ham yo'q. Qadimiy ingliz tilida qo'shma gaplarning turli ko'rinishlari boshqa qadimgi tillardagi kabi juda keng qo'llanilgan. Quyidagi misollar bu hukmni tasdiqlab kelmoqda:

Her Aethelwulf cyning geteaht et Carrum with 35 sciphl est and tha Deniscan ahton w els towe gewald.(Beowulf, 18 5) Here king Athelwulf faught at Charmouth with 35 shiploads, and the Danes kept the battlefield in their power. O'sha yili qirol Etelvulf Sharmutda 35 ta kemada bo'lgan Daniya armiyasi bilan jang qildi va o'z hokimiyatini saqlab qoldi.

Tha w es thonne leo papa on Rome and he hine to cyninge gehalgode. (Beowulf, 256) Then was Leo pope in Rome ,and he invested him as king. Keyin Rimda Leo pop bo'lib saylandi va mana shu pop uni qirol etib tayinladi.

N efde se here, Godes thances ongelcyn for swythe gebrocodi, ac hie w eron micle swithor gebrocode on th em thrim gearum, mid, ceapes cwilde and monna. (Beowulf, 126) The army had not, thank God, utterly destroyed England, but they were more affected by deaths of cattle and human beings. Xudoga shukrki, dushman qo'shinlari Angliyani yakson qila olmadi, lekin ular juda ko'p qoramol va odamlarning hayotiga zomin bo'lishdi.

Me com swithe oft on gemynd, hwylce wistan w eron giond Angelcyun. (Cura Pastoralis, 257) If often came to my mind what scholars there formerly were in England. Ko'pincha ilgarilari Angliyada qanday zo'r olimlar bor edi degan fikr menga kelib qoladi.

Uncuth, nu longe th er sw e gel erede biscepas sien. (Cura Pastoralis,127) It is unknown, how long there will be such learned bishops. By kabi bilimdon, o'qimishli yepiskoplar yana qanchagacha bo'lishadi, bu narsa qorong'u.

Othere s ede his hlalorde Aelfrede cyninge, th et he ealra North morma, northmest bude, on th em lande northweardum with th em lande northweardum with tha wests e. Ohthere told his lord, king Alfred, that he lived northern west of all Northmen. He said, that he lived in the land northward along the Atlantic Ocean. Otxere o'z hukmdori qirol Alfredga aytdiki, u barcha normanlardan yiroqda yashagan. U shimolda Atlantik Okeani bo'ylarida yashaganini ham aytdi.

Yuqorida keltirilgan gaplarda xilma-xil mazmun munosabatlari ifodalanadi. Ana shularni hisobga olib, qo'shma gap turlarining nomlanishi masalasi ko'pchilik tilshunoslar diqqatini o'ziga tortadi.

Aytib o'tilganiday, voqealar o'rtasidagi munosabat qadimgi ingliz tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarda aniq va to'liq ifodalanadi. Bu munosabatning ifodalanishi va belgilanishida bog'lovchi va bog'lovchi vositalarning o'rni benihoya muhimdir.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday vositalar ergash gapning mazmunini asosan tayin etishi mumkin. Bu bog'lovchi vositalar o'z mazmuniga ko'ra muayyan munosabatga kirishayotgan voqealarni faqat bog'lash uchungina xizmat qilmaydi, balki bunga qo'shimcha ravishda yana turli modal ma'nolar, so'zlovchining sub'ektiv munosabatlarining ifodalanishi uchun ham ko'mak beradi. Bog'lovchi vositalarning qo'shma gapdagi ahamiyati qaqida gapirib M.I.Cheremisina shunday deydi: «qo'shma gap tarkibidagi aloqa ko'rsatkichini o'z himmatiga ko'ra sodda gapdagi kesim bilan qiyoslash mumkin, u qo'shma gapning tarkibiy cho'qqisidir» Misollarga e'tibor qarataylik:

Txode gif him w ere niht get ese. He asked if the night had been quiet for him. U unga jimlik bo'ladimi deb so'radi.

Men ne cunnon secgan to soothe, seler edende, h elth under heofonum, hwa tham hi este onfeng. (AS Chronicle, p258) Men can not say for sooth, counselors in hall, heroes under heaven, who received the load. Zaldagi elchilar, osmon ostidagi qahramonlar, bu og'ir yukni o'z zimmasiga olgan odamlarga oson bo'ldi deb aytolmadilar.

Swythe feawa w eron behionan Humbre the hiora theninga cuthen understonan on englise.(A S Chronicle, pl58) Very few on this side of the Humber who could understand their service in English. Hamberning narigi tarafida faqat juda ozchilikgina ingliz tilini tuzukroq tushunadi.

Tha w es on tha tid Aethelbyrht cyning haten on Centrice mihtig se h efde rice oth gem ego Humbro streamas. There was at this time a king called Athelbyrht in Kent and a mighty one, who had his kingdom as far as the river Humber. O'sha paytlarda Kentda Etelberxt degan qirol bo'lardi va u juda qudratli bo'lib, uning qirolligi chegaralari Hamber daryosigacha yetib borardi.

Ne gewunade gerissenlice leoth wyrca tha de efesmsse and to arf estnisse belumpon. (A S Chronicle, 259) He was going to compose proper sings which belonged to religion and piety. U din va taqvodorlik haqida o'z ashulalarini yaratishni istardi.

Hwearf tha hr edlice, th er Hrothgar s et. (Beowulf, p 261) He turned quickly to where Hrothgar sat. U tezgina Xrotgar o'tirgan tomonga burildi.

Tha he tha thas andsware onfeng, tha ongan he sona singan. (AS Chronicle, p 262) When he had received this answer, he soon began to sing. Bu javobni olishi bilanoq u ashula aytishni boshlab yubordi.

Thonne he geseah tha hearpan him neal ecan, thonne aras he for sceome fram th em symble. (AS Chronicle, p l28) When he saw the harp approach him ,he rose for shame from the feast. U odamlarning arpani uning oldiga olib kelayotganliklarini ko'rib uyalganidan ziyofatni qilib o'tirgan erda o'rnidan shartta turdi.

So'zlovchi tomonidan fikr ifodasi uchun ayni ergash gapli qo'shma gap shaklining tanlanishini mutlaqo tasodifiy deb bo'lmaydi. Lisoniy texnika nuqtai nazaridan, albatta, sodda gap o'ng'ayroq. Lekin so'zlovchi fikrni ixcham va ayni chog'da barcha ob'ektiv va sub'ektiv jihatlari bilan ifodalashga zaruriyat sezganda qo'shma gapga murojaat qiladi. Bir necha voqea va ular o'rtasidagi xilma-xil munosabatlar (maqsad, sabab-oqibat, shart, payt kabi) ni ifodalash uchun axborot beruvchi tomonidan jumlaning qo'shma gap tarzida tuzilishi, M.V.Lyapon ta'biri bilan aytganda, «xulosa chiqarish operatsiyasiga o'xshaydi». Bunda axborot beruvchi axborotni maxsus mantiqiy ishlovdan o'tkazadi, ya'ni voqealar o'rtasidagi munosabatni baholaydi, aniqlaydi, unga o'z nuqtai nazarini bildiradi va xokazo. Bu mantiqiy operatsiyalarning natijasi sifatida shakllangan qo'shma gapda ayni mazmunlar muayyan darajada aks etadi.

Bu o'rinda gap ma'nosidagi ikki xil tabiatli mazmunni farqlash kerak bo'ladi. «Mazmuniy sintaksisning taraqqiyoti munosabati bilan - deb yozadi V.A.Beloshapkova, juda ko'p tilshunoslar tomonidan turli vaqtlarda aytilgan gap ma'nosida bir-biridan printsipial farqlanuvchi ikki tur mazmun - borliqni aks ettiruvchi xolis mazmun va fikrlovchining ana shu borliqqa bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi sub'ektiv mazmun qo'shilgan, degan fikr alohida dolzarblik kasb etdi». Gap ma'nosidagi bunday mazmun turlari dastlab Sh.Balli atamalari tomonidan farqlangan. U ob'ektiv mazmunni «diktum», sub'ektiv mazmunni esa «modus» deb nomlagan. Sh.Balli atamalari bilan aytiladigan bo'lsa, muayyan bir diktum turli moduslar bilan birga ifodalanishi mumkin. Masalan,

1. My friend will undoubtedly come.
2. If only my friend came.
3. My friend likes to come.
4. My friend is sure to come.
5. My friend is likely to come.

Bu gaplarning barchasida ayni bir diktum ifodalangan, ammo ulardagi moduslar har-xil, so'zlovchining ayni voqeaga turlicha sub'ektiv munosabati aks etgan: aniq, istak, gumon, ikkilanish kabi.

Qo'shma gaplarda ayrim hollarda modus va diktum alohida-alohida, ya'ni qo'shma gapning bir qismida modus, ikkinchi qismida diktum ifodalanishi mumkin.

Ma'lumki, modus, modallik so'zlari lotin tilida «usul» ma'nosini bildiradi. Gapning diktumi yoki ob'ektiv mazmuni biz qo'llayotgan atama bo'yicha «denotativ voqea» ga to'g'ri keladi. Denotativ voqea talqinida u qadar har-xillik yo'q. Ammo modus talqinida bir muncha har-xillik bor. M.I.Cheremisina va T.A.Kolosovalar o'z tadqiqotlarida «Gapning modusi va diktumi haqida» maxsus qism ajratib, unda bu tushunchalar haqidagi hozirda mavjud tasavvurlarni umumlashtirganlar. Ularning ta'rificha, «diktum referenti nutqda ifodalanayotgan reallikdagi muayyan vaziyatdan iborat bo'lgan asosiy axborot sifatida tushuniladi», modus esa «diktum mavqeidagi voqeaning modallik yoki ayni voqea, haqidagi tasavvurni ruhiy qayta ishlash tabiati aspektidagi ifodaga ega bo'lgan (verbal) sub'ektiv talqinidir»

Heold, thenden lifde, gamol ona guth-reow gl ede scyldingas. (AS Cronicle, p 262) ...ruled, while he lived, old and battle famous, the scildings, so that they were glad ...va u to qarib qartayguncha, umrining oxirigacha hukmronlik qildi va fuqarolar tinch, hamma shod xurram edi.

N efre him death scetheth on tham will wonge thenden woruld stondeth. (AS Chronicle, p 128) Never will death harm in the wonder garden, while the orld stands. Toki bu dunyo turar ekan, bu ajoyib, mo'jizakor bog'ga o'lim va tushkunlik soya sola olmaydi.

Th er se eadga mot.. .wunian in wonge, oththat wintra bith thusend urnen. (AS Chronicle, p. 262) There blessed one can ...live in the garden, untill a thousand years have elapsed. Xydo yorlaqaganlar bu yerda ming yillar yashar edilar.

Gewat tha neosian siththan niht becom, hean huses. (AS Chronicle, p. 129) Started then, when night fell, to approach the high house. Keyin u tun olamga qora zulmatdek sochlarini yoyganda, o'sha balandlikdagi uyga yaqinroq borish uchun yo'lga tushdi, qo'zgaldi.

Ko'rinib turibdiki, har uchchala qo'shma gapda ham bosh gaplar modusni,

ya'ni ergash gaplarda ifodalangan voqealarning sub'ektiv talqinini ifoda etgan. Rus tilidagi ana shunday qo'shma gaplar haqida gapirib, N.S.Pospelov shunday ta'kidlaydi: «Bunday qo'shma gaplarning bosh gap qismi alohida axborotni ifodalamaydi, balki faqat ergash gapning modallik jihatdan shakllanishi uchun vosita bo'lib xizmat qiladi, bunda u o'z leksik ma'nosi bilan ergash qismdagi mazmunga so'zlovchining u yoki bu tarzda munosabatini ifodalaydi.»

Bu gaplardagi ergash gaplar bosh gaplardagi denotativ voqeaning modal talqini ifodasi uchun xizmat qilgan. Demak, ergash gapli qo'shma gaplarning bosh va ergash qismlarida o'zni bilan modus, o'zni bilan denotativ voqea -ob'ektiv mazmun ifodalanaverishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlamoq joizki, modus tushunchasi o'z ichiga bir qator ma'nolarni oladi, xususan, «baho», «ruhiy holat», «taxmin» va boshqalar. Shuning uchun ham qo'shma gaplarda modus ifodalanganda, modus ifodachisi bo'lgan gapning predikati sifatida turli so'zlar ishtirok etishi mumkin. Xususan:

Think, feel, know, approve, want, say, see, good, bad, important, correct kabi fe'llar.

Ba'zan, fe'l bo'lmagan ayni so'zlar sub'ektni ifodalab kelishi ham mumkin va hokazo.

Ergash gapli qo'shma gaplarda modus va denotativ voqeaning alohida-alohida ifodalanishi doimiy emas. Ergash gapli qo'shma gaplarda ularning mazmuniy-mantiqiy va sintaktik mohiyatiga mutlaqo muvofiq ravishda aksar hollarda modus alohida gap sifatida emas, balki turli grammatik shakllar orqali ifodalanib, bevosita ikki yoki undan ortiq denotativ voqea - diktum ifodalanishi mumkin. Ana shunga ko'ra ergash gapli qo'shma gaplarni ikki katta guruhga ajratish mumkin, ya'ni: 1) ikki yoki undan ortiq denotativ voqea ifodalangan va 2) bir denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo'shma gaplar. Shunga yaqin nuqtai nazarni S.A.Shuvalovning tadqiqotida ham ko'rish mumkin. U qo'shma gaplarda ifodalanishi mumkin bo'lgan mazmun munosabatlarini 2 - sinfga ajratadi: 1 – sinf: qo'shma gapning denotati real borliqdagi bir-biri bilan muayyan munosabatda bo'lgan ikki vaziyatdan iborat. (Men tugilganimda ota-onalarim

Londonda yashar edilar) 2 sinf: qo'shma gapning denotati real borliqdagi bor vaziyatdan iborat». Ikkinchi sinfdagi mazmun munosabati deganda, S.A.Shuvalova so'zlovchining maqsadi real borliqdagi bir denotativ voqeani tavsiflamoq bo'lgani holda ana shu tavsif jarayonida ikki yoki undan ortiq denotativ voqea tavsifidan foydalanishni nazarda tutadi. Bu jihatdan biz ajratgan ikkinchi guruh bilan S.A.Shuvalova ajratgan ikkinchi sinf bir-biridan birmuncha farq qiladi.

Bu o'rinda V.V.Martinovning ayni masalaga yondashuvi diqqatga sazovor. U ikki diktum-denotativ voqea o'rtasidagi munosabat va shunday munosabat ifodalangan qo'shma gaplarni hamda modus bilan bir diktum - denotativ voqea o'rtasidagi munosabat va shunday munosabat ifodalangan qo'shma gaplarni farqlaydi. Bunda u ta'kidlaydiki, birinchi tur qo'shma gaplar real, tildan tashqaridagi borliqning ikki yoki undan ortiq vaziyati bilan aloqador bo'lsa, ikkinchi tur qo'shma gaplarda bir vaziyat va ayni voqea haqidagi xabar, ayni g'ayrilisoniy va lisoniy borliq vaziyatlari o'rtasidagi aloqadorlik ifodalanadi. Masalan: *Кто-то сообщил, что Пётр спрятался в сарае; Он знал, что комиссия собрался без него.* Ana shunga ko'ra V.V.Martinov qo'shma gaplarni ikki guruhga ajratadi: 1. Lisoniy va 2. Metalisoniy.

Polyak tilshunosi Anna Vejbitska ham matn tarkibidagi ana shunday qo'shma gap qismidagi mazmunlarning o'ziga xos tabiatini ta'kidlaydi. *Кстате говоря. Я ему совсем удивлюсь. По правде говоря. Я ему не удевялюсь. Что касается меня, не очень этому верю. Если я не ошибаюсь он уехал* kabi bir qator gaplar, paqida shunday yozadi: «Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ayni gaplarning birinchi qismlari asosiy matnga shunchaki shaklan kiritilgan, ular asosiy matn bilan grammatik aloqalar orqali bog'langan. Ammo hatto eng yuzaki mazmuniy tahlil ham bu ifodalarning metamatniy tabiatini oshkor qilib qo'yadi».

Tashqi olam hodisalari, ular o'rtasidagi munosabat so'zlovchining ayni hodisalarga bo'lgan nuqtai nazariy keng ma'noda har bir til vakillari uchun mushtarakdir. Lekin bu masalalarning tildagi noma'lum bo'lishi bilan aloqador muammolar, shubhasizki, har bir til uchun anchayin xususiylik kasb qiladi. Shuning uchun ham ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuniy sintaksisi

o'rganilar ekan, mazkur mazmunlarning ta'kidlanayotlangan mantiqiy asoslarining o'ziga xos tabiatini chuqur idrok qilish, ayni mantiqiy asoslarning til sathidagi nisbatlanishi bilan bog'liq muammolariga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Ta'kidlamoq lozimki, modus «voqea» bir qo'shma gap doirasida diktunga - denotativ voqeaga qarshilantirilgandagina modus «voqea» bo'la oladi. Muayyan denotativ voqea bilan munosabatdan tashqarida modus «voqea» mavjud emas, agar shunday munosabatdan tashqarida bo'lsa, u denotativ voqeaga, ya'ni diktunga aylanadi, masalan:

Wes seo hwyl micel, twelf wintra tid torn gethelode wine Sculdinga, weanna gehwylcne, sidra sorga, fortham synththan wearth ylde bearnum undyrne cuth, Syddum geomore, th ette grendel wan hwile with Hrothgar. (Beowulf, p 263) The time was long, twelve years did the Scildingas friend suffer rage, every great sorrows, because later it became known to children of men, sadly in songs, that Grendel had long made war on Hrotgar. Juda uzoq vaqt o'tdi, o'n ikki yil davomida ruhoniyning do'sti g'azab olovi ila yondi, uning qayg'usi g'oyat ulkan, cheksiz g'am daryosi uni o'z og'ushiga olgan edi va keyinchalik uning qayg'uli qo'shiqlari orqali bolalarga ma'lum bo'ldiki, Grendel allaqachon Rotgar ustiga urush e'lon qilgan edi.

Swa sceal geong gumo gode gewyrcean, fromum leoh giflum on f eder erne, th et nine on ylde eft gewunies wil-gesithas, thonne wig cume, leode gel esten.(Beowulf, p 264) Thus shall a young warrior will achieve by generous gifts in his fathers house, that willing companionous should be with him in his old age, when a war comes, people should follow him. Garchi yosh jangchi otasining uyida otasidan fatvo olar ekan uning do'stlari toki u qariguncha uning yonida bo'lishar va agar yurtga dushman bostirib kirsar uning bilan birga yovga qarshi ayovsiz jangga otlanar edi.

Modusning farqlovchi belgisi diktumdan ajratib olinganda unda voqea haqidagi tasavvurning to'liq bo'lmasligidir. Yuqorida keltirilgan qo'shma gapda ham bu ko'rinib turibdi, ya'ni gapda ifodalangan modus muayyan voqea haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Qo'shma gapning mazkur qismida predikativlik to'liq

ifodalangan. Shunga qaramasdan, ayni bosh gap shaklan ham, mazmunan ham to'liq emas, gap sifatida chala. Chunki gapda modusning bevosita ifodachisi sifatida ishtirok etgan fe'lning kuchli sintaktik va mazmuniy-semantik valentligi ochiq qolgan. Bu ochiq qolgan valentlik esa denotativ voqea ifodasi bilan berkitilishi lozim.

Shuning uchun ham qo'shma gapning denotativ voqea - diktum ifodachisi bo'lgan ergash gap qismini keltirish ham mantiqan, ham mazmunan, ham shaklan (sintaktik jihatdan) zaruratdir.

Ergash gaplardagi bosh gap ergash gaplarga qaraganda alohida mavqega ega, bu tabiiy, shuning uchun ham u «bosh gap» deyiladi. Uni yaxlit gap sifatidagi qo'shma gapning grammatik «sinchi» deb ham atash mumkin. Ammo e'tibor berilsa, bir denotativ voqea ifodachisi bo'lgan qo'shma gapning ko'pchiligida bosh gap denotativ voqeani emas, balki modusni ifodalab kelgan (modus ergash gaplarda ham ko'pincha ifodalanadi). Bunday holatlarda, aytish mumkinki, mazmunan anchayin «kambag'allashadigan» bosh gaplarning mazmunan anchayin «boy» bo'lgan ergash gaplarga nisbatan alohida mavqei nima bo'ladi? Aytib o'tilganiday, denotativ voqea gapning xolis mamunini tashkil etadi, xolis mazmun esa gapning «mazmuniy yadrosi» demakdir. Bu mazmuniy yadro bosh gapda emas, ergash gapda ifodalanayapti-ku. V.V.Kasevich birma va rus tillaridagi ana shunday xususiyatga ega bo'lgan qo'shma gaplar haqida shunday deydi: «Bunday turdagi «bosh gap» ergash gapsiz noto'liqdir... Shuning uchun «bosh gap» degan an'anaviy tushuncha o'zini oqlash ehtimolidan uzoq: qabilidagi tizimlar o'zlarining mohiyatan noto'liqliligiga ko'ra nafaqat bosh gap, balki umuman gap ham bo'la olmaydi» V.G. Admoni esa, bir qadar boshqacharoq nuqtai nazarni aytadi: «Ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap ergash gapga qaraganda semantik jihatidan qiyoslab bo'lmaydigan darajada kam mazmunli bo'lishi mumkin, ammo bari bir grammatik jihatdan hokim bo'lib qolaveradi. Bu fikr, ayniqsa, ergash gapli qo'shma gaplarga tegishliki, ularda bosh gap kimningdir nutqini gapga olib kiradi, yoki ergash gapda ko'pincha keng ifodaga ega bo'lgan mazmunga modal baho beradi. **Ne said, that doubtfully, in order, for.**

Bunday tizimlardagi ergash gaplar ko'pincha maxsus nom (izohlovchi gaplar) bilan ataladi, bu nom ergash gaplarning ergash gapli kompleksdagi yetakchi ma'noviy mavqeini ta'kidlaydi. Lekin ular baribir grammatik jihatdan tobe gaplarligicha qolaveradi».

Mavzuga oid savollar:

1. Qadimgi davr ingliz tilida qanday grammatik kategoriyalar bor bo'lgan?
2. Qadimgi davr ingliz tilida fe'l qanday guruhlariga bo'lingan?
3. Qanday fe'llar suppletiv fellar deb atalgan?
4. Qadimgi ingliz tili grammatikasida nechta fe'l zamon shakllari bo'lgan?

O'rta davrda ingliz tili

Reja:

1. Skandinavlar istilosi. Normandlar istilosi. London shevasining hosil bo'lishi.
2. O'rta davr ingliz tili shevalari, yozma yodgorliklari.
3. O'rta ingliz tili davrining fonetik tuzilishi.

Tayanch iboralar: Orfografiya, yopiq bo'g'in, unlilarning torayishi, undoshlarning vokallashuvi, unlilarning vokallashuvi, unlilar reduktsiyasi.

O'rta ingliz davrining tarixiy ocherki

Skandinavlarining hujumi

Skandinavlarining Britaniya orollariga qilgan hujumlari kamida 300 yil (VIII-asrning ikkinchi yarmidan XI asr o'rtalarigacha) davom etdi.

Skandinavlar deganda shimolda yashovchi norveg va Daniya xalqlarini tushunamiz. Angliyada esa ushbu ikki xalqni bir nom bilan, ya'ni daniyaliklar deb atashar edi. Ko'p skandinavlar shimoli-sharqni Angliyaga o'rnashib olib, bu o'lkaning taraqqiyotiga katta ta'sir etishdi.

Qirol Alfred Buyuk qirollik qilgan davr (871-900) anglo-sakslarning

daniyaliklarga qarshi eng qattiq kurash olib borgan davrlardan biri bo'ldi. Alfred dastlab daniyaliklardan janubga qarab qochishga majbur bo'ldi. Ammo keyinchalik u muntazam urushga o'tib daniyaliklarni Temza daryosining narigi qirg'og'iga uloqtirib tashlashga muvaffaq bo'ldi. Uesseks qiroli Alfred daniyaliklarga qarshi juda ko'p qal'alar qurib, ularga qo'riqchi otryadlar qo'ydi va dengiz qirg'og'i bo'ylarini daniyaliklar hujumidan qo'riqlash uchun dengiz floti qura boshladi. Shu flot bilan qiroli Alfred katta g'alabalar qozondi va 878-yilda daniyaliklarni Uedmord shartnomasini tuzishga majbur qildi. Shu shartnoma bo'yicha skandinaviyaliklar Temzadan janubgacha bo'lgan yerlarni bo'shatib berdilar. Ayni vaqtda ular shimoli-sharqni va markaziy Angliyani o'z qo'llarida saqlab qoldilar. Shu katta hudud Danelag, ya'ni daniyaning qonuniy qududi deb atalar edi.

X asrda ingliz qirolliklari hamda Danelag qirolliklari birlashdilar. Bu inglizlarning va skandinaviyaliklarning assimillatsiya qilish natijasida kelib chiqqan edi.

Skandinaviyaliklarning hujumlari qiroli Alfred zamoni, ya'ni X asr oxirida yanada kuchaya boshladi. Bu hujumlar natijasida Uesseks qiroli haydalgan edi va butun Angliyada daniyaliklarning hokimiyati o'rnatildi. Bu hokimiyat daniyaliklarning siyosiy hokimiyati Angliyada tugatilgandan keyin ham 1042 yilgacha davom etdi.

Angliyada qolgan skandinaviyaliklar har-xil joylarda joylashdilar. Skandinaviyaliklar va inglizlar 1042 yilgacha deyarli bir xalqqa aylanib ketgan edilar. Ko'pgina anglo-sakslar va daniyaliklar bir joyda yashagan edilar. Bu hol geografik nomlarning va atoqli otlarning saqlanishi, hattoki daniyaliklar ko'p yashagan viloyatlarda ham aralashib ketganligi bilan izohlanadi.

Skandinaviyaliklarning hujumi ingliz tiliga ham o'z tasirini o'tkazdi. Qadimgi ingliz davridan keyin ingliz tilida skandinav tilidan o'zlashtirilgan ko'plab so'zlarni uchratish mumkin. Ammo ko'pincha qaysi so'z skandinav yoki qaysi so'z ingliz tilidan o'zlashtirilganligini aytish kiyin. Chunki bu ikkita tilning fonetik tarkibi bir-biriga juda yaqin edi. Ingliz tiliga skandinav so'zlarining o'tishi oson

edi. Skandinav tilidan o'zlashgan so'zlarning soni juda ko'p bo'lib, ko'p holatlarda bu o'zlashtirilgan so'zlar uy-ro'zgor, tabiat, hayvonlar, dengizchilik, kemasozlik atamalarini aks ettirardi. Shuningdek skandinav tilidan olmoshlar ham o'zlashtirilgan bo'lib, bu holat ushbu tillarning bir-biriga yaqin bo'lganligini ifodalaydi. Masalan; **They, Their, Them.**

Lekin qadimgi ingliz matnlarida skandinav tilidan o'zlashtirilgan so'zlar uncha ko'p uchramaydi, chunki ko'p matnlar janubda yaratilgan edi. Janubda skandinavlarining tasiri unchalik kuchli emas edi. Bundan tashqari keyingi Uesseks adabiy tili yangi so'zlarning o'tishiga qarshi kurashgan edi.

Qadimgi ingliz adabiy tili yoddan chiqqandan keyin, skandinav tilida o'zlashgan so'zlar soni o'rta ingliz davridagi manbalarda ancha ko'paygan edi. Masalan; "Take" ("olmoq" qadimgi ingliz tilidagi "Taka" qadimgi ingliz tilidagi "niman" o'rniga, "bloom" (gullamoq) qadimgi ingliz tilida "blom" qo'llanilgan.

Normanlar istilosi

O'rta asrlar Angliyasi tarixida eng katta voqea Angliyaning Normandiya gertsogi Vilgelm tomonidan istilo qilinishi bo'ldi. Normanlar asli skandinav qabilalaridan kelib chiqqan bo'lib, (Norman- porthman) "shimoliy kishi" ma'nosini anglatadi.

IX-asrda Skandinavlar Fransiyaning shimoliga hujum qila boshladilar, hamda Sena daryosining quyilishidagi ikkala hududni bosib oldi. Fransuz qiroli ushbu yerlarni skandinavlariga topshirdi. Shu yerlar Skandinaviya deb atala boshlandi, xalqini esa normanlar deb atasha boshlashdi. Normanlar fransuz xalqi bilan aralashib ketdi va fransuz tilini qabul qildi.

Norman gertsogi Vilgelm 1066-yilda ingliz qiroli Eduard ispovedning o'limi bilan sentyabr kunlarining birida La Manshdan o'tib 15000 kishiga yaqin ritsarlaridan iborat qo'shin bilan Angliyaning hududiga bostirib kirdi. Uning qo'shinida normanlardan tashqari, Fransiyaning boshqa viloyatlaridan bo'lgan yer va boylik orttirish payidagi ritsarlar ham bor edi. Vilgelmga qarshi shaylanib chiqqan Angliya qiroli Garold normanlarning hujumini to'xtata olmadi. Anglo-saks qo'shinlari Gastings shahri yonidagi jangda butunlay mag'lubiyatga uchradi

va Garold o'ldirildi.

Vilgelm boshchiligidagi istilochilar Londonga kirdi va uni Angliya qiroli deb elon qilishdi. Angliyaning shimolidagi normanlar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan ikkita qo'zgolon bostirilgandan keyingina Vilgelm hokimiyati uzil-kesil mustahkamlandi. Anglo-saks feodallarinigina emas, balki ajnabiylar hukmronligini istamagan dehqonlar jazolandi.

Mamlakatning istilo qilinishi va qo'zgolonlarning bostirilishi natijasida eski anglo-sakson yer egalarining ko'pi yerlaridan mahrum bo'lib, ularning o'rnini yangi kelgindi fransuz normanlari egalladi. Angliya cherkovining yepiskoplari ham batamom almashtirildi. Ilgarigi anglo-sakson yepiskoplari o'rnini fransuz yepiskoplari egalladi. Ko'plab fransuzlar Angliyaga kela boshladilar. Ularning ichida savdogarlar, askarlar, yepiskoplar, feodallar bor edi. Umuman Vilgelm davrida Angliyaga ikki yuz ming fransuz ko'chib kelgan edi.

Bir necha asrlar davomida Angliyada frantsuz tili asosiy bo'lib qoldi. Fransuz tili saroyda, cherkovda keng tarqalgan edi. Ingliz tili esa pastki ijtimoiy tabaqalar orasida ishlatilar edi. Fransuz tili ingliz tiliga qaraganda yuqorida turar edi, ammo ingliz xalqi o'z ona tilini mahkam saqlab qoldi. Faqat ingliz feodallarining kam qismigina fransuz tilini o'zlashtirishgan edi. Chunki o'sha davrda fransuz tilisiz yuqori tabaqalar orasida aloqa qilish mumkin emas edi.

Ingliz va fransuz tillari orasidagi kurash

Normanlar Angliyaga hujum qilgan paytda bu ikkala xalq aralashib ketmagan edi. Ko'p shaharlarda, masalan Noridjda va Nottingemda fransuz tumanlari bilan bir qatorda ingliz tumanlarni ham bo'lgan. Keyinchalik pastki tabaqalar o'rtasida turmush qurish asta-sekin boshlandi. Ko'plab fransuz va inglizlar o'rtasida turmush qurish ham rivojlana bordi. Pastki tabaqalar uchun ingliz tilini bilish shart edi, chunki ular har-xil ishlarni olib borar edilar. Bundan tashqari monaxlar va kichik ruhoniylar o'z ishlarini olib borish uchun ingliz tilini bilishga majbur edilar.

Yuqori tabaqalarda esa butunlay boshqacha bo'lib, fransuz tili saroy va hukumat tili bo'lganligi uchun ular ingliz tilini bilishi majbur emas edi. Har bir yuqori tabaqali ingliz esa frantsuz tilini bilishi majbur edi.

XIII -asr oxirida Robert Glosterskiy o'zining xronikasida shunday yozgan edi. "Vor bole a man conne irenss me telp of him late. Ac lowe men holdip to engliss and to hor owe speche gute" - Agarda biror kishi fransuz tilini bilmas ekan, odamlar unga nisbatan past nazarda bo'lar edilar, biroq past deb atalgan kishilar ingliz tiliga, o'z nutqiga yopishib olgan edilar.

Fransuz tilining hukmronligi XIV-asrning yarmiga kelib tamom bo'ldi. Bu hodisaning sababi Frantsiya va Angliya o'rtasidagi yuz yillik urush sabab bo'ldi. Bu urush Fransiya hududida bo'lganligi sababli inglizlarning frantsuz tilini bilishlari ixtiyoriy edi. Shuning uchun fransuz tilining tarqalishi pasaya boshladi. Buning dalili quyidagi isbot bo'lishi mumkin. 1348-yilda maktab o'qituvchisi D. Kornuell grammatikani fransuz tilida emas, balki ingliz tilida o'qita boshladi va shuning o'zi katta g'alaba edi. Buning natijasida 1385 yilda boshlang'ich maktablarda fransuz tilining o'rniga ingliz tili kiritildi. Hokimiyatda ham shu vaqtga kelib ingliz tili fransuz tilini siqib chiqara boshladi. 1358-yilda qirol Genrix London aholisiga ingliz va fransuz tilida yozilgan murojaatnoma bilan chiqdi. 1362-yilda Eduard III parlamentga ingliz tilida murojaat qildi. Shundan so'ng Angliyada qirol nutqi ingliz tilida aytiladigan bo'ldi. Fransuz va ingliz tillari o'rtasidagi kurash ingliz tilining g'alabasi bilan tugadi, fransuz tili esa anglo-norman shevasiga aylandi. XIV asrda bu sheva tamoman fransuz tilidan farq qilar edi.

XV asrda fransuz tili Angliyada tamoman yo'qotildi. Bu kurashda g'alaba qozongan ingliz tili o'zining asosiy fonetikasini va grammatikasini saqlab qoldi, shu bilan birgalikda fransuz tili orqali boyidi. Ingliz tiliga fransuz tilidan juda ko'p so'zlar o'tdi. Buning natijasida ingliz tilida juda ko'p sinonimlar paydo bo'ldi. Masalan: fransuz so'zlari hayvonlarni go'shtini nomini anglatrsa, ingliz so'zlari esa hayvonlarni o'z nomlarini ifoda etar edi:

Masalan: beef- mol go'shti, ox-ho'kiz, cow-sigir, veal- buzoq go'shti, a calf-buzoq, mutton -qo'y go'shti, a sheep-qo'y va boshqalar.

Fransuz tilidan kirib kelgan affiksalar: "re" (reread), "en" (entrust), "ment" (development), "ess" (goddess), "ry" (fishery), "age" (shortage), "able" (eatable) va

boshqalar.

London shevasining hosil bo'lishi va tarqalishi

O'n ikkinchi va o'n uchinchi asrlarda Angliyada vujudga kelgan siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar Londonning katta iqtisodiy va madaniy markaz bo'lishiga sabab bo'ldi. London Angliyaning shimoliy va markaziy hududlarini bog'lovchi yo'lda joylashishi bilan birga hunarmandchilik va savdo markazi edi. Shuning uchun London mamlakatning turli hududlar aholisini o'ziga jalb qila boshladi. Hududiy jihatdan markaziy, sharqiy va janubiy shevalar chegarasida joylashgan bo'lib London ushbu shevalarni va boshqa bir qancha shevalarni umumlashtiruvchi markazga aylandi. Demak, London shevasining vujudga kelishi o'n ikkinchi, o'n uchinchi asrlarga borib taqaladi.

XIV-asrning oxirlariga borib London shevasi Angliyaning boshqa hududlariga tarqala boshladi. Buning sababi esa Londonning mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy rolining oshishi edi. Londonda shuningdek parlament va hukumat joylashgan bo'lib, turli qonun, qaror va maxsus hujjatlar London shevasida yozilib, boshqa hududlarga tarqatilar edi. XIV-asrda til normalariga javob bera oladigan ko'pgina badiiy asarlar London shevasida paydo bo'ldi. Bular: «Eduard II davridagi axmoqona vaqtlar» poemasi, ingliz reformatori Jon Uiklif (1324-1384)ning faol ishtiroki natijasida Injilning ingliz tiliga tarjima qilinishi ham London shevasining keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Ushbu davrning eng yirik adabiyot namoyondalaridan biri Jeffri Choser (1340-1400) bo'lib, u ko'pgina asarlar yaratgan edi. Jumladan «Gertsoginya haqida kitob» (Book of the Duchess), "Shuxrat uyi" (the House of Famous). "Kenterberi hikoyalari" va boshqalar edi.

O'rta ingliz davrining yozma yodgorliklari va shevalari

Ushbu tarixiy davrda (XI-XV) ingliz tili shevalarida ancha o'zgarishlar ro'y berdi. Angliyaning shimolida Shotlandiyada nortumbr shevasi asosida shotland shevasi XIV-XV asrlarda shotland tili sifatida paydo bo'ldi. Keyinchalik esa, Shotlandiya erkinligini yo'qotgandan so'ng XVII-asrda hokimiyat ingliz qirollari qo'lga o'tgach, shotland tili shotland shevasiga aylandi. Shotland shevasining janubi-shimol shevalari guruhi tashkil topdi (shu nortumbr shevasi asosida).

Shotland tilida ham ko'pgina yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. Jumladan: shotland shoiri Djonu Barber (1316-1395)ning "Bryus" poemasi. Ushbu poema XIV-asrda Shotlandiyaning ozodligi uchun kurashgan milliy qahramon Robert Bryusga bag'ishlangan edi. Yana yirik asarlardan biri "Qirol kitobi" (The Kings Quhair) poemasi bo'lib, shotland qiroli Yakob I (1394-1457)ga tegishli. Shuningdek, XV-asr oxiri XVI-asr boshlarida yozilgan asarlarga Uilyam Danberning «Edinburg savdogarlariga», "Yetti gunohkorning raqsi" va boshqa asarlarni kiritish mumkin.

Angliyaning markazida Hamber va Temza daryolarining o'rtasida Mersiya shevasi asosida markaziy shevalar paydo bo'ldi. Bu shevalar sharq-markaziy (East-Midland) va g'arb-markaziy (West-Midland) shevalariga bo'linar edi.

Temzadan janubda uestseks va kent shevalari asosida janubiy shevalar tashkil topdi. O'z navbatida janubiy shevalar Kent va janubiy-g'arb shevalariga bo'linar edi. Shimoliy va markaziy shevalarning chegarasi Hamber daryosi edi. Markaziy va janubiy shevalarni chegarasi esa taxminan Temza daryosidan o'tar edi. Hamma shevalar o'rtasida London shevasi muhim o'rin egallar edi. Norman istilosidan keyin London Angliyaning poytaxti bo'lib qoldi. London Temzada joylashgan bo'lib, markaziy va janubiy shevalar chegarasida joylashgan edi. XII asrdayoq London tilida janubiy va markaziy shevalar elementlarining aralasha boshlaganini ko'ramiz.

XIV-asrning oxiriga borib London shevasi butun Angliyada keng tarqalgan edi. London mamlakatning iqtisodiy va siyosiy markazi bo'lib, bu yerga Angliyaning barcha joylaridan savdogarlar, umuman ko'p odamlar kelar edi va shunday qilib London shevasiga boshqa shevalarning elementlari kirgan edi. Shunday qilib, London shevasiga asosan sharq-markaziy va qisman janubiy-sharqiy va janubi-g'arbiy elementlari kirgan edi. Shu alozda London shevasi ingliz milliy tilining asosi bo'ldi.

London shevasining birinchi yodgorlingi 18-oktyabr 1258-yilda yozilgan «Genrix III proklamatsiya»si edi. London shevasida mashhur ingliz shoiri Choserning asarlari ham yozilgan edi. XV asrda London shevasida yozilgan asarlar

ko'paydi. Bular: Lidgeyt, Kekston va boshqalarning asarlari hamda Adam Dau va Gauerning asarlari kiradi.

Janubiy shevalar: Kent Dan Michel. Ayenbite of inbite (Vijdon qiynog'i) - diniy traktati, William of Shoreham, she'rlari (XIV- asr boshi) Roema Morale (XIII-asr boshi).

Janubiy-g'arbiy sheva: Layaman Brut (Britaniyaning she'riy tarixi), Ancren Riwe, Robert of Glovicesster "Sheriy xronika" (1300 y.) The Owl and Nightingale (XIII-asr boshi). 1387-yilda tugatilgan Kornvil jon de Trevizning "Polixronikon" (dunyo tarixi to'g'risidagi kitob) tarjimasi va boshqalar.

Markaziy sheva g'arbismi: Katerina. Margarita va Yulian haqida afsonalar (XIII-asr). William of Palerne (Ritsar romani), (XIV-asr o'rtasi) Sir Gawayne and the Green Knight va shu muallifning boshqa poemalaridir. (XIV-asr ikkinchi yarmi).

Sharqiy sheva: King Horn (XIII asr) Navelon the Dane (XIII asr).

Shimoliy shevada yozilgan yozma yodgorliklarga quyidagi asarlarni kiritish mumkin; 1300-yillar atrofida yozilgan "Cursor Mundi" poemasi, Robert Rollning "The Prick of Conscience" (vijdon azobi) poemasi. XIV-asr va XV-asr boshlariga tegishli misteriya (diniy mavzudagi drama)lardan "Townley Plays", "York Plays" asarlarini kiritish mumkin.

Qadimgi Mersiya shevasi asosida vujudga kelgan markaziy sheva Temza daryosining shimolida joylashgan bo'lib, o'z navbatida kichik shevalarga bo'lingan. Ulardan eng yirigi markaziy-sharqiy sheva bo'lib hisoblanadi. Ushbu markaziy-sharqiy shevada quyidagi asarlar yozilgan: XIII-asr boshlarida monax Orm tomonidan yozilgan «Ormulum» poemasi. 1154 yilgacha bo'lgan anglo-sakson xronikasining davomi hisoblanmish "Peterborough Chronicle" (tarixiy kundalik) solnomasi. XV-asr ikkinchi yarmiga tegishli shaxsiy xatlar "Celliy papers", "Letters of Margaret Peston"ni kiritish mumkin.

Ingliz milliy tilining shakllanishi

XIV-XV asrlarda Angliyada feodalizmning inqirozga yuz tutish jarayoni

boshlangan edi va ayni vaqtda kapitalizm paydo bo'la boshladi. Kasb, hunarlar taraqqiy qila boshladi hamda shaharlar qad ko'tara boshladi. Natijada aholi feodallar hokimiyatidan ozod qilina boshlandi, savdo taraqqiy eta boshladi.

16-asrda ingliz milliy bozori paydo bo'ldi. Shu bozor mamlakatning iqtisodiy birligining asosi bo'ldi. Iqtisodiy birlik esa millatning tashkil topishiga olib keldi. Millatning paydo bo'lishi bilan milliy til ham paydo bo'ldi.

Angliyada milliy tilining asosini London shevasi tashkil etadi. Bu tarixiy hodisalar bilan bog'liq edi. XIV-asrdayoq London Angliyaning eng katta savdo markaziga aylandi. Londonning siyosiy mohiyati tobora kuchayib borgan edi. Sanoatning rivojlanishi ham Londonda markazlashgan edi. Asta-sekin London mamlakatning madaniy markazi ham bo'lib qoldi. Mana shu faktorlarning hammasi London shevasinigina asosiy milliy til bo'lishiga sabab bo'ldi va ingliz milliy tili taraqqiy eta boshladi. Ingliz milliy tilining hosil bo'lishi uch asr davom etdi.

Ingliz milliy tilining hosil bo'lishida Uilyam Kekstonning faoliyati katta ahamiyatga eta edi. U birinchi bo'lib Angliyada kitob nashr etishga kirishgan edi. 1476 yilda Angliyada u ingliz tilida kitoblarni bosib chiqardi. Kitoblar tashkil topayotgan til normalarining ishlanishiga va mustahkamlanishiga va o'sha vaqtdagi Angliyaning eng uzoq burchaklariga tarqalishiga yordam berdi. Kitoblarning nashr etilishi ingliz orfografiyasining shakllanishiga ham xizmat qildi. Umummillat ingliz tilining tarqalishi bilan bir vaqtda mahalliy shevalar yo'qola bordi, shevalarning yagona milliy tilga markazlashish jarayoni ro'y berdi.

Choserning faoliyati

Jefri Choser (1340-1400) ingliz adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biridir. Choserning hayot yo'li ko'pgina ijtimoiy tabaqalardan o'tgan edi. U asli unchalik boy bo'lmagan oiladan edi, keyinchalik esa parlamentga deputat bo'lib ham saylangan edi.

U ko'pgina asarlar yaratgan bo'lib jumladan, "Gertsoginya haqida kitob" ("Book of the Duckess")- Choserning eng yirik asarlari, "Shuxrat uyi", "House of Famous" va "Olijanob ayollar haqida kitob", "Kenterberi hikoyalari" va ko'pgina

boshqalar edi. Choser yashagan davrda fransuz tilining ta'siri katta edi va boshqa ko'pgina yozuvchilar frantsuz tilida yozishar edi. Ammo Choser faqatgina ingliz tilida yozishni istar edi, chunki bu til uning o'z ona tili edi. U asli Londonlik bo'lgani uchun o'z asarlarini London shevasida yozgan edi. Bu bilan Choser ingliz tilini yaratdi deb hisoblash mumkin emas, chunki u ingliz tilini tayyor holda topgan edi. Uning xizmati shundaki, u bu tilni ustalik bilan qo'lladi. U xalq tilini shunaqa lingvistik elementlarini topib, shu elementlar orqali adabiy tilni yaratish uchun eng qulay yo'nalish yaratdi. Choserning asarlari London shevasini ingliz adabiyotining asosi qilib qo'ydi.

O'rta ingliz tili davri orfografiyasi

O'rta ingliz tili davri orfografiyasi o'zining turg'un emasligi bilan xarakterlanadi. Bu mahalliy shevalarning turlichi va ularda yozilgan asarlarning ma'lum bir til normasiga bo'ysunmasligi sabab bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, bizgacha etib kelgan norman kotiblari tomonidan kiritilgan orfografik yozuvlarning ko'pchiligi bizgacha etib kelgan.

Cho'ziq unlilarning yozilish usuli

XI-XV-asrdan boshlab cho'ziq ochiq [e] va cho'ziq yopiq [e:] e harfining juft yozilishi bilan ifodalana boshlandi.

Feet [fe:t] been [be:n]

Yeer [je:r] deed [de:d]

Shu bilan birga cho'ziq yopiq [e:] fransuz tilidan o'zlashgan "ie" digrafi bilan ham berilgan.

Chief [tʃe:f]

Ochiq [ɛ:] va yopiq [e:] yozuvda farq qilmagan, ammo XV-asrdan boshlab ochiq cho'ziq [ɛ:] tovushi uchun "ea" digrafi qabul qilingan.

Year, dead, read.

Cho'ziq ochiq [o:] va cho'ziq yopiq [o:] tovushlari uchun ham "oo" digrafi qo'llanila boshlangan.

Foot [foit], boot [bo:t]

Shuningdek ba'zi o'rta ingliz tili davr yozma yodgorliklarida ochiq cho'ziq

[o:] tovushi “oa” digrafi bilan ham ifodalangan.

Noan, loand, boat, road.

XIII asrdan boshlab ochiq bo’g’inlardagi qisqa [o] cho’ziq [o:] ga o’tdi, ammo oa harfi bilan ifodalanishda davom etdi.

Nose [o]>[o:] smoke [o]>[o:]

XIII asrdan boshlab cho’ziq [u:] fransuzcha “ou” yoki “ow” digraflari bilan yozila boshladi.

Qadimgi ingliz	O’rta ingliz
Hūs	hou[s] [hu:s]
Mūs	Mou[s] [mu:s]
Hū	How [hu:]
Nū	Now [nu:]

O’rta ingliz tili davrida cho’ziq [i:] “y” harfi bilan yozila boshlagan.

Qadimgi ingliz	O’rta ingliz
Wif>	wyf
Bi>	by

Shuningdek **y** harfi qisqa [i] ni ham ifodalashda qo’llanila boshlagan. Qadimgi ingliz “mihti” > o’rta ingliz “mighty” [mixti].

XIII asr davomida [u] tovushini ifodalash uchun qo’llanilgan “u” harfi **n,m,v** harflari oldidan “o” harfi bilan almashtirildi.

Qadimgi ing.

O’rta ing.

Yangi ing.

Cuman [kuman]

comen [kuman]

come [kΛm]

Sum [sum]

some [sum]

some [sΛm]

Wundor [wundor]

wonder [wundor]

wonder [wΛnda]

O’rta ingliz tili davrida [tʃ], [ʃ], [dʒ] fonemalari mavjud edi, ammo ularning yozuvdagi belgisi yo’q edi. XII asr o’rtalariga kelib normand kotiblari ta’siri natijasida [tʃ] ifodalash uchun **ch** digrafi [ʃ] tovushini ifodalash uchun **sh** digrafi qabul qilindi. [θ], [ð] fonemalarini ifodalash uchun XIV-asrda **th** harf birikmasi

kiritildi. [x], [x] fonemalarini ifodalash uchun **gh** qo'llanila boshlandi.

Qad.ing. brohte > **o'rt.ing** broughte

Qadimgi ingliz tilidagi "hw" [hw] harf birikmasini ifodalash uchun "wh" qo'llanila boshlandi, ammo talaffuzi XV asr boshlarigacha o'zgarmasdan qoldi.

hwæt > what [hwat]

hwile > while [hwile]

Qadimgi davr ingliz tilida tovushini ifodalagan 'p' (wyn) "w" harfi bilan almashtirildi (ya'ni "uu" double "u" dan kelib chiqqan). Qadimgi davr ingliz tilidagi [k] tovushini ifodalash uchun qo'llanilgan "s" harfi 12-asrdan boshlab faqat undoshlar va orqa qator unlilar oldidan [k] tovushini ifodalashda qo'llanila boshlandi. Old unlilar oldidan esa fransuz tilidagidek [s] tovushini anglatishga ishlatila boshlandi.

certayn > certain

Old qator unlilar oldidan keladigan [k] tovushini ifodalash uchun **k** harfi qo'llanila boshlandi.

qadimgi ing. cepan > **o'rta ing.** Keepen

[kw] tovushini ifodalovchi **cw** harf birikmasi o'rniga **qu** harf birikmasi qabul qilindi.

Cweðan > quethen

cwicu > quike

Qadimgi davr ingliz tilida [j] tovushini ifodalagan ζ harfi **u** harfi bilan almashtirildi.

ζiefan > yeven-bermoq

ζēar > yeer-yil

[gg] [dg] ga o'tgan tovushni ifodalovchi **cg** harf birikmasi **g** yoki **dg** bilan almashtirildi.

brycg > bridge

Qadimgi davr ingliz tilidagi jarangli **cg** ifodalagan **c** harfi saqlanib qoldi, ammo fransuz tilidan o'zlashgan **z** harfi bilan ham ba'zi so'zlar ifodalanar edi.

Freosan [freo:zan] > freeze

O'rta ingliz davrida unli tovushlar

O'rta ingliz tili davrining unli tovushlari sistemasida ancha o'zgarishlar bo'lib o'tgan edi. Shu o'zgarishlar unli harflarga ham tarqalgan edilar. Ma'lumki o'rta ingliz tili davrida Angliyada fransuz tilining ta'siri juda katta edi. Ingliz yozuvi ham fransuz kotiblari qo'llarida bo'lgan. Shu kotiblar ingliz tiliga fransuz yozma harflarining shakllarini kiritgan edilar. Shundan ba'zi birlari tilda hozirgacha saqlanib qolgan.

Unli tovushlar yozilishida asosan o'zgarishlar quyidagicha hosil bo'lgan:

1. Qadimgi ingliz matnlarida [u:] tovushini **u** harfi ifoda etardi. Keyinchalik esa fransuz tilidan shu tovush uchun **"ou"** kiritilgan edi. Avvalo **"ou"** harfi birikmasi fransuz tilidan kiritilgan so'zlarda ishlatilar edi, keyinchalik ingliz so'zlarida ham qo'llanila boshlandi.

Masalan: OE hus ME: hous[hu:s].

So'z oxirida ba'zi vaqtlarda so'z o'rtasida ham **"ou"** o'rniga **ow** yozishar edi.

OE cu ME cow [ku:]

2. [u] tovushi uchun "o" ishlatila boshlandi.

OE Cuman > comen [kumən]

Sunu > sone ['sunə]

3. [e:] tovushi uchun **"ie"** unlisini uchratish mumkin.

Chief [tʃe:f], relief [re'le:f] va shunga o'xshash fransuz tilidan kiritilgan so'zlarda qo'llanilgan bo'lib, keyinchalik esa ingliz tilidagi so'zlariga ham kirib kelgan. Masalan, OE feld > ME field[fe:ld]

4. [u:] tovush uchun **"u"** harfi kiritilgan edi. Lekin faqat [u] shu dialektlarda ushbu tovush saqlanib qolgan bo'lsa.

Masalan: fur

Fransuz tili ta'siri natijasida ingliz tili uchun umumiy bo'lgan orfografiya yo'q edi, har bir mahalliy dialekt o'z xususiyatlariga ega bo'lgan. Buni biz yozma yodgorliklarda ko'rishimiz mumkin.

Norman istilosidan keyin o'rta ingliz tilida asosan qadimgi ingliz tilida

bo'lgan dialektlar saqlanib qolgan edi. Lekin shu dialektlarga boshqacha nom berilgan edi. Nortumbr dialekti — shimoliy (Northern). Mers dialekti — Markaziy (Midland), Uesseks va Kent dialekti — Janubiy (Southern).

Markaziy dialekt o'z navbatida ikkiga bo'linadi: G'arbiy Markaz (West Midland) va Sharqiy Markaz (East Midland).

Ayrim unli tovushlarning o'zgarishi

Yuqorida aytib o'tilgan ediki, o'rta ingliz davri fonetik sistemasida ancha o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shu o'zgarishlar asosan quyidagicha:

Qadimgi ingliz tilida "a" o'zgarmagan edi. OE **a** va **o** har xil dialektlar har- xil rivojlangan edi.

G'arb-sharqiy dialektda "o" qolgan edi; **mon, con.** qolgan shimoliy, janubiy va sharqiy markaziy dialektlarda esa "a" qolgan edi; **man, can.**

“a” harfi esa shimoliy dialektda o'zgarmagan edi, markaziy va janubiy dialektlarga esa " ô " o'tgan:

fa>fo, ham>hom

OE æ asosan >a

glæd>glad, æppel>eppel

Faqat g'arbiy-markaziy va Kent dialektlarida:

æ>e wǣs>wes, æppel>eppel

OE æ () >"e" ochiq

slæpan>slepen

3 Mid " æ " OE davridayoq yopiq e ga o'tgan edi.

slepan, leten

OE 0 () ę hamma dialektlarda:

dǣl> dēl, Sǣ>sē dengiz

Kent dialektida esa æ yopiq ē OE davridayoq o'tgan edi va ME da shunaqa saqlanib qolgan: del, se

OE y shimol va sharq... >i

Kent dialektida >e va boshqalar shunaqa saqlanib qolgan:

ferst, hell

ŷ - y harfi haqida

OE da e, ē, I, I, o o'zgarmagan.

tellan>tellen. Urllle>urllle

Qadimgi ingliz tilida **ô** tovushi asosan o'zgarmagan faqat shimoliy dialektda [ö] [ü] gud, fuh, fut, fot ü u o'zgarmagan hu>hou. sume>sone.

O'rta ingliz tili davrida unli tovushlarda bo'lgan asosiy o'zgarishlar.

O'rta ingliz tili davrida tilning fonetik tuzilishida ancha o'zgarishlar bo'lib o'tgan edi. Bulardan ba'zi birlari umumiy tovushlar kategoriyasiga dahldor edi. Ba'zi birlari esa, faqat ayrim unli va undosh tovushlarga tarqalgan. O'rta ingliz tili davrining asosiy fonetik o'zgarishlari quyidagilar:

1. Urg'usiz bo'g'inlarda reduksiya;
 2. Unlilarning qisqarishi va cho'zilishi;
 3. Qadimgi ingliz diftonglarining monoftonglarga aylanishi;
 4. Yangi diftonglarning paydo bo'lishi.
- I. Urg'usiz bo'g'inlarda unli tovushlar reduksiyasi.

Hamma urg'usiz unli tovushlar "e" tovushiga o'tgan [ə]. Masalan, infinitiv qo'shimchasi **an>en**

Spræcan>spræcen

sættan>sætten

Ko'plik son bosh kelishik qo'shimchasi as>es

stanes>stones yoki, **sunu>sune.**

Wyld va Yespersen bu hodisani XIII asrga tegishli deb xisoblashadi. XIII asr matnlarida **asbed>asbid** formasini **bunden>bundin** formalarini uchratish mumkin. Balki, yozilishidagi farqlar mahalliy dialektlardagi talaffuz xususiyatlariga bog'liqdir, chunki yuqorida ko'rsatilgan farqlar faqat shimoliy dialektda uchraydi.

Masalan, QI fst>fisi

düst>dust

læfan>laft.

Faqatgina **ld**, **nd**, **mt** va ayni vaqt **st** oldida kelgan harf birikmalari cho'ziqligicha qoldi. Masalan, **bindan**.

Eastan>esten "sharqda"

Ayrim uch bo'g'inli so'zlarda undosh oldida turgan cho'ziq unli ham qisqaradi.

Masalan,

OE

ME

halidæ > haliday

laferce > lark

Unli tovushlarning cho'zilishi

"a, o, e" qisqa unli tovushlari ochiq bo'g'inlarda cho'zilgan edi. Masalan, talu>tále

care>cáre

stelan>stēlan

"i" va "u" qisqa tor unli tovushlar cho'ziq keng tovushlarga aylandi: i>e. u>o wikes>wēkes

duros>dores.

O'rta ingliz tili davrida yangi prinsip vujudga kelgan edi. Unli tovushining cho'ziq va qisqa bo'lishi fonetik muhitga bog'liq edi. Brunner, Ilish va Smirnitkiy unli tonushlarning qisqarishi XI va cho'zilishi XIII asrda bo'lib o'tgan deb hisoblaydilar. Arakin esa shu ikkita hodisa parallel bo'lib o'tgan deb hisoblaydi.

Shu jarayon umuman tilning ritmik-fonetik strukturasi o'zgartirgan edi va unli tovushlar sistemasining keyingi rivojlanishi uchun imkoniyat tug'dirib berdi. Bu esa yangi ingliz unli tovushlar sistemasining yaratilishiga olib keldi.

Unlilarning torayishi

XII-asr davomida cho'ziq [a:], [æ:] unlilarining torayishi sodir bo'ldi. Buning natijasida qadimgi ingliz tilida [a:]>[o:] ga o'tdi va **o** yoki **oo** bilan, keyinchalik esa **oa** bilan ifodalana boshlandi.

Ban > bon, boan - suyak

gan > goon - yurmoq

hlaf > lof, loaf - non

Agar [a:] tovushidan oldin undosh + [w] turgan bo'lsa, uning ta'sirida [o:] ifodalana boshladi.

twa > two [two:]

[æ:] > [ɛ:] ga o'tdi va yozuvda **e** yoki **ee**, **ea** grafikasida qo'llanila boshlandi.

sǣ > se, sea - dengiz

lǣtan > leten, leeten - ruxsat bermoq

XIII asrga kelib qadimgi ingliz [a:] tovushi qisqa [a]ga o'tdi.

thǣt > that [ðat]

Qadimgi ingliz diftonglarining monoftonglarga aylanishi

Hamma qadimgi ingliz diftonglari XI asrda monoftonglarga aylandilar, faqat Kentda bu hodisa XIV asrgacha uchrab turar edi. Bu jarayon natijasida:

ea > æ > a QI da wearm > wǣ:rm > warm

Lekin, bu erda dialektlarga ko'ra ancha farqlarni ko'rishimiz mumkin. Janubiy dialektda:

ea > ea > e, eare > ēare > ere

Markaziy dialektda "ea" ga sinish hodisasiz "a" harfi **ld** oldidan "a" cho'zilgan va **o:** (ochiq cho'ziq)ga o'tgan.

ea > a > o ceald > cald > cold

Shimoliy dialektda ham sinish bo'lmagan edi. Lekin "a", "ld" oldidan cho'zilib o'z sifatini saqlab qoldi (hech qanaqa boshqa tovushga o'tib ketmagan).

ald > ald.

Qadimgi ingliz Uesseks adabiy til uchun xarakterli bo'lgan sinish formalar tilning keyinchalik taraqqiyotida asosiy bo'lgan London dialektida o'z ifodasini topmmaydi. London dialektning formolari qadimgi ingliz Mers dialektidan boshlanib kelmoqda. Mers shevasida biz bilganimizdek sinish oz tarqalgan edi.

Uesseks **cald** formasiga Mersiyadagi **aid** formasi mos kelardi. Tilning keyingi taraqqiyoti uchun esa aid formasi ahamiyatga ega edi. Chunki hozirgi zamon ingliz tilini old so'zi "**aid**" formasidan kelib chiqqan.

Qadimgi ingliz cho'ziq ea > e ochiq cho'ziq tovushiga o'tgan edi.

Qadimgi ing: heap > hep

Kentda esa: ea > **ue, ua** ga o'tgan

deild > dyed, dyad

Qadimgi ingliz "eo" avvalo [o] tovushiga o'tgan edi. Shu tovushni g'arb-sharqiy va janubiy-g'arb dialektlarida XIV asrgacha uchratish mumkin edi, qolgan boshqa dialeklarda esa **o** XII asrda "e" o'tgan.

Masalan : q.ing seolf. soil, self

Qadimgi ingliz cho'ziq eo > e

Yozilishida ko'pincha double "ee"

theof > thief

ceosan > chosen

Qadimgi ingliz "io" "i" dan umlaut ta'sirida kelib chiqqan, qadimgi ingliz davridayoq "eo" ga utib keyinchalik esa "o" ga o'tgan.

siolfor > seolfor > selver

Qadimgi ingliz **ie, i, u** palatal undoshdan keyin janubiy-g'arbiy shevada i, u gietan > yitan, yuten, boshqa dialektlarda esa qadimgi ingliz tilidagi **e** diftongi saqlanib qoladi: geten, gelden

Janubiy dialektda:

ea > ea > e eare > ēare > ere

Markaziy dialektda "ea"ga sinish hodisasiga o'xshash "a" harfi mos kelardi. Keyin esa **ld** oldidan "a" cho'zilgan va **o** (ochiq cho'ziq) o'tgan ea>a>o ceald > cald > cold

Shimoliy dialektda ham sinish hodisasi bo'lmagan edi. Lekin "a" "ld" oldidan cho'zilib, o'z sifatini saqlab qoldi (hech qanaqa boshqa tovushga o'tib ketmagan), **ald>ald**.

Yangi diftonglarning paydo bo'lishi

O'rta ingliz tilida yangi tildagi diftonglar paydo bo'ladi. Bu diftonglar qadimgi ingliz monoftonglashib ketgan diftonglardan tamoman farq qilar edi. Yangi diftonglar unli va o'rta yoki orqa sirg'aluvchi undosh tovushlar birikmasi

natijasida vujudga kelgan.

Til o'rta sirg'aluvchi undosh g [g] va til orqa sirg'aluvchi y [j] unlisiga aylanadi va oldingi kelayotgan unli bilan birga yangi tildagi diftonglarni vujudga keltiradi. O'rta sirg'aluvchi natijasida paydo bo'lgan diftonglarning ikkinchi elementi "i" tovushi bo'ladi.

Orqa sirg'aluvchi vujudga keltirgan diftonglarda esa ikkinchi element "w" keyinchalik "u".

1. Unli + til o'rta sirg'aluvchi j æg > ai, ay masalan :

dæg > dai , day

mæy> mai, may

áy>ai, gráy>gral>gray

ey > ei . ey wey > wei, wey

ēy> ei,ey hēy> hei, hey.

2. Unli + orqa sirg'aluvchi "u"

ag>aw>au

lagu>lawe

ag>ow

agen>owen

"au" diftongi bir qator fransuz tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydi: cause, faute.

Bundan tashqari ushbu diftong juda ko'p normand shevasida burun tovushlari oldida uchraydi.

ancient>auncient

chambre>chaumber

Diftonglar **unli + h** dan paydo bo'lgan bo'lishi mumkim. Lekin bu tovushlar saqlanib qolmagan: a+h>auh, augh, naht>haught.

Shu o'zgarishlar natijasida, o'rta ingliz tilida yangi diftonglar paydo bo'lgan. Ular qadimgi ingliz diftonglaridan farq qilar edilar, chunki ularning ikkinchi elementi tor edi. Qadimgi ingliz diftonglarida esa ikkinchi element ochiq edi.

Shunday qilib, o'rta ingliz tilining fonetik sistemasi qadimgi ingliz diftonglaridan farq qilar edi. Asosiy o'zgarishlar faqat tovushlarning o'zlarigina o'zgarib qolmasdan, balki ayrim fonetik printsiplar ham o'zgargan. Unli tovushning sifati va soni, fonetik va orfografik o'zgarishiga bog'liq edi. Diftonglarning xususiyati ham o'zgargan edi.

O'rta ingliz davrining konsonantizmi

O'rta-ingliz tili davrida qadimgi ingliz davrida boshlangan jarayonlar tugadi. O'rta ingliz davrida deyarli ko'p o'zgarishlar bo'lmagan.

1. So'zning boshida **hl, hn, hr** harf birikmalarida turgan "h" talaffuzda tushib qolgan edi.

masalan: hlaforð > lord

hnuiu > nute, hring > ring

2. O'tgan zamon formalarida [k] tovushi tushib qolgan.

Makede > makde > made

Maked > makd > mad

Ushbu unli tovushlarning sistemasi yangi ingliz davrni fonetik sistemasini rivojlanish asosi edi.

Mavzuga oid savollar

1. Norman istilosi davrida ingliz tilining mavqei qanday edi?
2. Skandinavlar istilosi ingliz tiliga qanday ta'sir etdi?
3. Ingliz tilining fransuz tili ustidan qilgan g'alabasining sabablari nimada edi?
4. Shotland tili qaysi sheva asosida hosil bo'lgan edi?
5. London shevasining mamlakat buylab tarqalishiga nimalar sabab bo'lgan?
6. O'rta davrga kelib, orfografiyadagi o'zgarishlarning asosiy sababi nimada edi?
7. O'rta ingliz tili davrida qanday yangi diftonglar hosil bo'ldi?

Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi gaplarni o'qing, tarjima qiling, ularda ishlatilgan ot va fe'l

shakllarining qo'llanishi xususiyatlariga e'tibor bering. Alohida e'tibor so'zlar semantikasi va kombinatorikasiga qaratilsin.

1. *Se flota* tha eall gecuron Cnut to cuninge (Chron., p. 272) – O'shanda u flot Knutni qirol deb atagan.

2. *Se here gebrohton* heora soipu on Lundene (Chron., p. 268) – Qo'shin kemalarni Londonga olib keldi.

3. And eall thaet *folc* God aelmihtigne bletsodon and wurhodon (A.L., p. 536) – Bu xalq qodir xudoni olqishlab unga sig'indilar.

4. Th *landfolc* comen him ongean grithedon with hine, *waedon* th he sceolde thet land ofergan (Chron., p. 345) – Unga qarshi chiqayotgan xalq bu bilan bitim tuzdi va u mamlakatni vayron qiladi deb o'yladi.

O'rta davr ingliz tili

1. All his *baranage* him biforn to Joseph ban an oth sworn (C.Mundi., 4649) – Uning barcha baronlari ungacha Iosifga bo'ysunib kelganlar.

2. The knight was glad, and no ferly, and so were al that *cumpanye*. (H.Synne, Z863) - Ritsar mamnun edi va qo'shinining barchasi mamnun ekanligini hayratlanarli joyi yo'q edi.

3. his *dugethe* weoron blithe. (Bruth, 17635) - Uning qo'shini xushchaqchaq edi.

4. *The Kynrod* of Cayn was evir bisi for to make armour and wepin. (Chr, of Engl., p.l 1) - Kainning urug'i doimo qurol yasash bilan mashg'ul edi.

Boshlang'ich yangi ingliz tili davri

1. And ... a Dutch *fleet* is gone thither: and if they should meet with our lame ships (Pepys, Diary, p.296)

2. *The army* of queen means to besiege us. (Sh. III, H. 6,1, 2, 64)

3. *The company* she keeps about her are like herself, that she may be known by them what she is. (Pepys, Diary, p. 148)

4. All his *families* are in good humour. (Ad. Spectator, p. 13)

O'rta ingliz tili davri grammatik tuzilishidagi asosiy o'zgarishlar

Reja:

1. O'rta ingliz tili davrida ot kategoriyasi.
 - a) O'zak-negizli turlanishdagi o'zgarishlar.
 - b) Rod kategoriyasining yo'qolishi.
2. O'rta ingliz tili davrida olmosh kategoriyasi.
3. O'rta ingliz tili davrida fe'l kategoriyasi.
 - a) Fe'l tuslanishidagi asosiy o'zgarishlar.
 - b) Yangi zamon shakllarinng paydo bo'lishi.

Tayanch iboralar: *Otlarning o'zak-negizli turlanishi, shaxs son, grammatik rod, artikl, qo'shimchalarining reduksiyasi, urg'usiz bo'g'in, davomli shakl, perfekt shakl.*

Qadimgi ingliz tili davrida vujudga kelgan omonim kelishik qo'shimchalarining tushishiga olib keldi. Ushbu hodisa, urg'usiz bo'g'indagi unlilarning reduktsiyaga uchrab neytral tovush ifodalay boshlashi tasirida yuzaga keldi.

XII asrga kelib, qadimgi ingliz tilida mavjud bo'lgan “-as” qo'shimchasining “-es” ga o'tishi va mujskoy, sredney roddagi barcha negizli (-o-.i-.u-) otlar -a-negizli otlarning bosh kelishik birlik va ko'plik qo'shimchalarini ola boshladi.

Jenskiy roddagi (-o-.i-.u-) negizli otlarning bosh kelishik ko'pligi “-en” negizli qo'shimcha bilan ifodalana boshladi va XIII – XIV asrlarda “-es” ko'plik qo'shimchasi bilan qo'llanilishga o'tdi. “-es-“ ko'plik qo'shimchasi fransuz tili ta'sirida vujudga kelgan degan olimlar fikri ilmiy adabiyotlarda ko'proq uchraydi.

-a- negizli muj.roddagi otlar

	birlik	ko'plik	
	Qadimgi ingliz	XII asr	XIV asr
	hring	ring	ringes
	Hrinegs	ringes	ringes
	Hrineg	ringe	ringes
	hring	ring	ringes

O'rta ingliz tili davrida negizlarga ajratish jarayoni tugagan edi. Ammo grammatik rod saqlanib qolgan edi. XII asrda II turlanish qolgan edi. Turlanishlarga bo'lish asosida rod yotgan edi.

Muj.rod		
	birlik	ko'plik
Bosh kelishik	ston	stones
Qaratqich kelishik	Stones	stone
Jo'nalish kelishik	Ston (e)	stones
Tushum kelishik	ston	stones

Endi muj.rodga "a" negizli so'zlari "a" "a" negizli sr.rod so'zlari kirar edi. Jen. rodga esa "u" "o" negizli so'zlar va qisman "u" negizi sr.rod so'zlari kirar edi.

Jen.rod		
	birlik	ko'plik
Bosh kelishik	cāre	cāreu
Qaratqich kelishik	cāre	cāren (e)
Jo'nalish kelishik	cāre	cāren
Tushum kelishik	cāre	cāren

Sr.rod		
	birlik	ko'plik
Bosh kelishik	ship	shipe
Qaratqich kelishik	shipe	shipe
Jo'nalish kelishik	ship	shipen
Tushum kelishik	ship	shipe

XIV asrda so'zning oxiridagi "u" qo'shimchasi tushib qoladi. Shuning natijasida rod va kelishiklar bir xilda bo'lib chiqadi .

XV asrda esa "e" ham tushib qoladi. Bu esa jen. va sr. rod bir xil bo'lib qolishiga olib keladi. Faqatgina ikkita kelishik saqlanib qoladi, possessive va

objective case qo'shimchalarning yo'qolgani bilan birga grammatik ma'nolar ham yo'qoldi deb o'ylash noto'g'ri. Flektiv formalar o'rniga analitik formalar vujudga keladi, ya'ni kelishiklar oldingi ko'makchi orqali ifoda etila boshlandi.

Predloglar qadimgi ingliz tilida ham mavjud edi. Ular ayrim leksik ma'nolarga ega edi. Masalan: Two gentlemen of Kerona.

“of” ko'makchining aniq ma'nosi. Keyinchalik esa ko'makchilar so'z manosini yo'qotgan edi.

XIV asrda “of” ko'makchisi qaratqich kelishigini ifoda eta boshladi: The groghte of Marche - Mart qurg'oqchiligi.

"Wip" ko'makchisi ma'nosi qadimgi ingliz tilida qarshi bo'ylab edi.

Efeah wip pone here - bu yerda qarshi keyinchalik esa birgalik kelishigi o'rnida ishlatila boshlandi.

"To" esa jo'nalish kelishigi.

eocle lo his huse - o'z uyiga ketdi.

XIV -XV asrda eski flektiv sistemasi o'rnida kelgan edi.

"S" suffiksi bilan egalik formasining tarixi

Yuqorida aytilganday qadimgi ingliz tili turlanish sistemasi yo'qola bordi, ingliz otlari faqatgina ikkiga kelishikka ega bo'lib qoldi, ya'ni bosh va qaratqich kelishigi “es” qo'shimchasiga ega edi va ko'plik sonning qo'shimchasi ham "es" edi.

Qaratqich kelishigi suffiksi "es" edi, u ko'pincha muj. va sr. rod otlariga qo'shilar edi.

Bundan tashqari V negizli otlarga qaratqich kelishigida "es" qo'shimchasi qo'shilmas edi.

Masalan: **his sister sone** (onasining o'g'li).

Yoki jen. rodde **the Scottis Quene ctyue** - Shotland qirolichasining jinoyati.

"es" suffiksi urg'usiz paytda [iz] talaffuz etililadi.

XIII-XV asrlarda “is” "ys" orfografik belgisiga ham ega edi. XIII asrda tegishlilikni ifodalash uchun yangi metod qo'llaniladigan bo'ldi va shu usul XV-XVI asrlarda keng tarqalgan edi. Bu usulning mohiyati shunda ediki, otdan keyin

tegishlilikni ifodalash uchun egalik olmoshi ishlatilar edi. Ya'ni: his. her, their.

Mas: XIV asrda The painter ys nam - rassomning ismi.

XV asrda **No shoo apon no man ys fote** hech kimning oyog'ida botinka yo'q. Undan keyin egalik olmoshi [h] ni yo'qotgan edi va his is (ys) ohangiga yaqinlab qolgan edi.

Keyinchalik is (ys) fonetik bo'yicha [r] va [s] ga oddiylashgan edi. Apostrof – 's yozilishi esa XVII asrda tarqala boshlandi. Shunday qilib, hozirgi zamon "s" formasi qadimgi ingliz tili "a" negizli muj. va sr. rod otlarining qaratqich kelishigidan kelib chiqqan edi. Ko'plik sonning va egalik formasining qo'shimchalariga mos kelgan edi va shuning uchun ko'plik son uchun faqat "s" qo'shilar edi. Lekin otlar ko'plik sonda "es" qo'shimchasiga ega bo'lmasa "-s" qo'shilar edi.

O'zakli negizlar

Qadimgi ingliz davrida otlarning katta bir guruhi bor edi. Bu guruhning otlari ko'plik sonda negiz yasaydigan suffiksga ega emas edi va ko'plik son qo'shimchalarini to'g'ri so'zning o'zagiga qo'shish orqali yasalar edi. Turlanmishning bu tiliga uch rod otlari ham kirar edi. Ko'plik son bosh va tushum kelishiklarida otlar "i" suffiksiga ega edi. "i" suffiksi esa til oldi pereglasovkasiga olib kelib tushib qolgan edi. VII asrga kelib ba'zi bir so'zlar ko'plik sonning bosh va tushum kelishiklarida hech qanaqa suffiksga ega bo'lmagan, balki o'zakdagi unlini o'zgartirgan edi. Bu usul keng tarqalmagan edi va o'rta ingliz davrida tuxtagan edi.

Bu guruhning ba'zi bir so'zlari masalan: bos, scrud keyinchalik shu guruxdan ajralib "es" suffiksi yordami bilan ko'plik sonni vujudga keltira boshladi. Books

Ilgari bōc - bec

qolgan boshqa so'zlarla esa uzakdagi unlini o'zgarishi orqali ko'plik yasalishi saqlanib qolgan edi.

a foot-fut

a tooth- teeth va boshqalar

Qadimgi ingliz ko'plik sonda o'zakni o'zgartiradigan ("goose" g'oz)

so'zidan) yangi ma'noni ya'ni "mashinachining dazmoli" anglatadigan **goose** so'zi paydo bo'lgan edi. Shu so'z ko'plik sonda o'zakdan negizni o'zgartirmasdan balkim "es"suffiksi ishlatilishi orqali yasalgan: a goose— geese

Sheep va eor so'zlarining ko'plik soni.

"a" negizli qadimgi ingliz **sceap** va **surne deor** so'zlari ko'plik sonda qo'shimchalarga ega emas edilar, chunki o'zakda cho'ziq unliga ega bo'lgan so'zlar "u" suffiksini yo'qotgan edi. Shuning uchun bu otlarning ko'plik va birlik son formalari bir xil edi, ya'ni **sēap deor**.

Ko'p vaqt o'tgach bu guruhning ko'p so'zlari masalan: **pēār, þing** ko'plik sonda "es" suffiksi kushiladigan so'zlari guruhiga o'tgan edi. Eski shaklini esa yuqorida aytilgan faqat uchta so'z saqlab qolgan edi.

Albatta bu erda nima uchun bu so'zlar ko'plik sonda "es" suffiksini qo'shmaydi degan savol paydo bo'ladi. Qadimgi ingliz "a" negizli **fisc-fiscas** formalarga ega bo'lgan **fisc** so'zi ham keyinchalik bu guruhga o'tib ketgan. Faqat **fish** so'zi emas, balkim **trout, salmon, sterlet** so'zlari ham ushbu guruhga o'tgan.

Otlarda grammatik rodning yo'qolishi

Otlarning negizli turlanishidagi morfologik belgilar sistemasining buzilishi faqatgina kelishik kategoriyasi emas, balki rod kategoriyasining ham yo'qolishiga olib keldi.

Ot va sifatlardagi kelishik va bir-biri bilan moslashuvchi qo'shimchalarning yo'qolishi hamda olmosh, artikllarning kelishik qo'shimchalarining buzilishi natijasida rod grammatik kategoriyasini xarakterlovchi belgilar yo'qola bordi.

XII-XIV-asrlar davomida kishilik olmoshlari sistemasida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'rta davr ingliz tilida kishilik olmoshlari quyidagicha ko'rinish oldi:

	Birlik	Ko'plik
	Bosh kelishik	Bosh kelishik
I shaxs	I, ich	We

II shaxs	Thou	Ye
III shaxs	M. he F. he, she N. hit, it	Hi, they

O'sha davrga kelib tushum kelishigi olmoshlari asosida obyekt kelishigi olmoshlari ham hosil bo'ldi.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	Mē	Us
II shaxs	Thē	thou
III shaxs	M.r him J.r hir, hire S.r hit, it	Them, hem

Egalik olmoshlari esa quyidagicha ko'rinish olgan edi.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	Min, mi	Our
II shaxs	Thin, thi	Your
III shaxs	M. his F. hir, her N. his	Ther, hire

Ko'rsatish olmoshlari

XII-XIV asrlar davomida ko'rsatish olmoshlari bir qancha o'zgarishlarga duch keldi. Natijada ikki xil ko'rsatish olmoshlari, ya'ni yaqin masofani ko'rsatish olmoshlari va uzoq masofani ko'rsatuvchi ko'rsatish olmoshlari hosil bo'ldi.

Qadimgi (M) þēs>thes [ðe:s] þās>tho, thos [ðo:s]

(F) þēos>thes [ðe:s] þā>tho, thos [ðo:s]

(N) þis>this þæt>that

Artiklning hosil bo'lishi

O'rta davr ingliz tilining eng muhim grammatik hodisalaridan biri bu aniq va noaniq artiklning vujudga kelishi bo'ldi.

Qadimgi davr ingliz tilida mavjud bo'lgan m.r sē, j.r sēo, va sr.r. þæt ko'rsatish olmoshlari yordamchi so'z vazifasida qo'llanilib, ot tomonidan ifodalangan predmetning ayrim xususiyatini ko'rsatishga xizmat qilgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu ko'rsatish olmoshlarining funksiyalari boshqa ko'rsatish olmoshlariga o'tib, bu olmoshlar aniq artiklga aylanadi.

Aniq artiklning rivojlanishi noaniq artiklning hosil bo'lishi bilan ham bog'liqdir. Noaniq artiklning hosil bo'lishiga qadimgi davr ingliz tilidagi **ān**-“**bir**” soni xizmat qilgan. Qadimgi ingliz tili davrida ushbu son faqatgina sanoq son vazifasinigina emas, balkim otning umumiy xarakterini ko'rsatuvchi so'z sifatida ham qo'llanila boshlagan edi. XII asrga kelib **ān** ikkiga bo'lindi, ya'ni **oon** [o:n] keyinchalnk **one** [wʌn]ga aylandi va noaniq artikl **an** o'rta ingliz tili davrida saqlanib qoldi. XIII-XIV- asrlarda **n**-ning urg'usiz bo'g'inlarda tushishi natijasida **a** noaniq artikli hosil bo'ldi. Ammo **an** unli tovushlar oldidan qo'llanilishi saqlanib qoldi.

Qadimgi davr ingliz tilida mavjud bo'lgan barcha (kuchli, kuchsiz, preterito-prezent, suppletiv) fe'llar o'rta davr ingliz tilida ham saqlanib qoldi. Ammo o'rta davr ingliz tilidagi fonetik o'zgarishlar ta'siri natijasida ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ldi.

KUCHLI FE'LLAR SISTEMASIDAGI ASOSIY O'ZGARISHLAR

1. Qadimgi ingliz [ā] > o'rta ingliz [ō] o'tish 1 sinf ikkinchi negizida [ā]>[ō] o'tishda sababchi edi. Shuning natijasida unlilarning almashinuvini quyidagicha ko'rsatish mumkin: **î-i-ō-o**.

Bundan tashqari urg'usiz qo'shimchalarning unlilari [ə] reduksiyalashgan edi.

driven - drov - driven – driven; shinen - shon - shinen - shinen

2. Diftonglarning cho'zilishi II va III sinflarida ba'zi bir o'zgarishlarga olib keldi. II sinfdagi uchinchi negiz (ya'ni o'tgan zamon ko'plik soni) [u] ni [o] ga

almashdi. XIII asrda uchinchi va to'rtinchi unlilar cho'zilgan edi.

II sinf fe'llarining unlilar almashinuvini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

I ēo>ē	II ēā>ē	u>ō>ō	ō>ō
chesen	ches	chosen	chosen
fresen	fres	frosen	frosen

3. Uchinchi sinf fe'llari qadimgi ingliz tili davrida uchta sinflarga bo'linar edi.

O'rta ingliz davrida esa 2 va 3 sinflarning unlilari modifikatsiyasi natijasida bir xil bo'lib qoldi.

II sinf	melten	malt	multen	molten
	helpen	halp	hulpen	holpen
III sinf	ēō>ē	ēā>ā	u	o
	kerven	earv	curven	corven
	sterven	sratw	sturven	storven

III sinf I sinfchaning fe'llariga bo'linib ketgan edilar. Ulardagi fe'llarning "i" va "u" unlilari "ld", "nd" va "mb" oldida cho'zilgan edi.

III sinf I sinfga cho'zilgan

i>i	ā>ō	u>ū	u>ū
binden	bōnd	bounden	bounden
finden	fōnd	founden	founden

Cho'zilmagan

i	ā>ā	u	u
drinken	drank	dunken	drunken
winnen	wan	wunnen	wunnen

Qisqa [ō] ko'pincha [ā] ga o'tgan edi.

Qisqa ingliz [ɔ]ning o'rta ingliz cho'ziq [e] torayishi va [ɔ] ni [ū] o'tishi IV va V sinf fe'llari unlilarning o'zgarishiga olib keladi.

IV sinf fe'llari

Q.ing ē> o'rta ing e	Q.ing ā> o'rta ing a	e>ē	ō>o
beren	bar	beren	boren
teren	tar	teren	toren

V sinfnig ba'zi bir fe'llari to'rtinchi negizning [ē] va [ō]ga almashgan edi.

ē>e	æ>a	ē>e	ē>e
sp(r)eken	sp(r)ak	sp(r)eken	sp(r)eken, spoken
eten	at	eten	eten

O'rta ingliz davrining o'rtasida ochiq urg'uli bo'g'inlarda qisqa unlilar cho'zilgan edi. Shuning natijasida 4, 5, 6 sinf birinchi negizda 2, 4, 5 sinf, uchinchi negizda 2, 4-6 sinf to'rtinchi negizda o'zgargan edi. Misollarni yuqorida ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan o'zgarishlar negizlarning moslashuviga olib kelgan edi. Kuchli fe'llarning o'rta davr ingliz tilidagi shakllari quyidagicha ko'rinish oldi:

Infinitiv	O'tgan zamon birlik	O'tgan zamon ko'plik	Sifatdosh II	
I sinf written riden	wrot rod	written riden	written riden	to write to ride
II sinf chesen	ches	chosen	chosen	to chose
III sinf drinken	drank	dronken	dronken	to drink
IV sinf beran	bar	beren, bar	boren	to bare
V sinf geten	gat	geten, gat	geten	to get
VI sinf shaken	shok	shoken	shaken	to shake
VII sinf fallen holden wepen	fell held wep	fellen helden wepen	fallen holden wepen	to fall to hold to weap

Kuchsiz fe'llar

O'rta ingliz tili davrida kuchsiz fe'llarda o'zgarishlar ro'y berdi. Urg'usiz bo'g'inlardagi unlilarning kuchsizlanishi natijasida bir sinfdan ikkinchisini farq qiluvchi belgilari yo'qoldi va fe'llarning bitta shaklga birlashishiga olib keldi.

	Qadimgi ingliz tili davri	O'rta ingliz tili davri
--	---------------------------	-------------------------

sinf	infinitiv	O'tgan zam. ko'plik	infinitiv	O'tgan zam. ko'plk	infinitiv	O'tgan zam. ko'plik
I	belæfan	belædon	beleven	belevden	beleeve	beleevede
II	locian	locodon	loken	lokedden	looke	lookede
III	libban	lifdan	liven	livden	live	livede

Yuqoridagi jadvalda ushbu kuchsiz fe'llarning o'zgarishi misollarda keltirilgan. Ushbu kuchsiz fe'llarning bir guruhiga suffiksatsiya bo'lishi natijasida kuchli fe'llarga qaraganda ko'pchilikni tashkil eta boshladi. O'sha davrda tilga kirgan yangi fe'llar ham ushbu guruhga qo'shilishdi. Shu bilan birga guruh fe'llarining ba'zilarida yangicha o'zgarishlar ham sodir bo'ldi. Masalan o'zagi -l.-n.-ld.-nd.-rd bilan tugaydigan fe'llardagi -de suffiksi -te ga aylandi.

Qadimgi ingliz tili davri			O'rta ingliz tili davri		
Infinitiv	O'tgan zamon	Sifatdosh II	Infinitiv	O'tgan zamon	Sifatdosh II
Fēlan	Fēlde	Fēl(e)d	Fēlen	Fēlte	Fēlt
Lænan	Lænde	Læn(e)d	Lenen	Lente	Lent
sendan	sende	sendedn	senden	Sente	sent

Preterito-prezent fe'llar sistemasidagi o'zgarishlar

O'rta ingliz tili davriga kelib preterito-prezent fe'llarining tovush tuzilishi tildagi umumiy fonetik o'zgarishlarga binoan o'zgardi.

Masalan: **wat>wot; āg>owe; sceal > shal**

Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalarining reduktsiyasi. O'rta ingliz tili davrida fe'lning shaxs-son qo'shimchalari quyidagi o'zgarishlarga yuz tutdi:

1. Urg'usiz bo'g'indagi unlining "[ə]" ga kuchsizlanishu fe'ldagi shaxs-son qo'shimchalaridagi farqning yo'qolishiga olib keldi.
2. Shaxs-son qo'shimchalarining yo'qolishi natijasida tovush almashinuviga kiruvchi fe'llarning sistemi suffiksli fe'llar guruhiga o'tdi.

Son	Shaxs	Qadimgi ing.t. davri	O'rta ing. t. davri	Son
Birlik	I	Telle	Telle	Telle
	II	Tallest	Tallest	Tallest

	III	Telleþ	telleth	Telles
Ko'plik		telleþ	Tellen	telle

Yangi zamon shakllarining paydo bo'lishi.

Qadimgi ingliz tili davrining oxirlariga kelib perfekt, kelasi zamon va majhul nisbat shakllarining analitik formalari paydo bo'la boshladi. Ammo ushbu davrda bu shakllar grammatikalashuv jarayonida bo'lib, erkin sintaktik birikma sifatida qaralar edi. O'rta ingliz tili davriga kelib ushbu shakllar to'la grammatik shaklga ega bo'lishdi.

Biz ushbu jarayonni quyidagicha izohlashimiz mumkin:

1. **beon, habban, sculan, willan** fe'llarining boshqa turli fe'llar bilan birikib qo'llanilishi natijasida ushbu fe'llar o'zlarining leksik ma'nolari yo'qola bordi va ushbu jarayon XIII-XIV asrlarga kelib o'z nihoyasiga yetdi. Misol uchun "**that hem hath holpen....**" «ularga yordam bergan» gapida **hath** fe'li o'zining «bor bo'lmoq» leksik ma'nosini to'laligicha yo'qotgan.

2. **beon, habban** fe'llari bilan birikib keladigan sifatdosh konstruksiyasi qo'shimchalardagi umumiy reduksiya ta'siri natijasida rod, shaxs-son, kelishik shakllarini yo'qotdi va murakkab fe'l shakllari tarkibiga kirdi. Ushbu jarayonlar natijasida yuqorida keltirilgan konstruksiyalar fe'lning zamon grammatik shakliga aylandi.

